

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

JUMANIYOZOVA SHOHISTA HAMID QIZINING

**5120100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH (O‘ZBEK TILI) TA’LIM
YO‘NALISHI BO‘YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLIISH UCHUN**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Ulug‘bek Hamdam romanlarida mavzu va g‘oya masalasi

Ilmiy rahbar:

f.f.n. N.A.Jumaniyozova

Urganch 2016-yil

Mavzu: Ulug‘bek Hamdam romanlarida mavzu va g‘oya masalasi

Reja

I Kirish. Mavzuning maqsad va vazifalari.

I bob Istiqlol davri adabiyotida Ulug‘bek Hamdam ijodi.

1.1.Ulug‘bek Hamdam nasriy asarlarining janriy xususiyatlari.

1.2.U.Hamdam romanlarida muhabbat mavzusi.

II bob “Muvozanat” romanida mavzu va badiiyat.

2.1. U.Hamdamning “Muvozanat” romanida mavzu va badiiy ifoda tarzi

2.2. “Muvozanat” romanining badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

KIRISH. Mavzuning maqsad va vazifalari

Mavzuning dolzarbligi. Mavzu dolzarbligi, g'oyaviy yuki roman kompozitsiyasining badiiy yaxlitlikda tutgan o'rni va vazifaviy ahamiyatini nazariy jihatdan umumlashtirish, zamonaviy o'zbek romanlari matn qurilishi, ulardagi badiiy nutq shakllari, rivoya sub'ektlari, yozuvchilar ijodiy niyati, nuqtayi nazarlari, ob'ekt sifatida tanlangan asarlar syujet tarkibini istiqloq davri epik tizimi yutuq-kamchiliklari misolida tadqiq etish va baholashda namoyon bo'ladi.

"Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois,-deb yozadi Prezidentimiz I.A.Karimov,-ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik, milliy iftixor, butun dunyo uchun bag'rikenglik tomon keskin o'zgartirib yubordi. Bu esa xalq, ruhiy qudratining birinchi belgisidir. O'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy- axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'lik bo'lgan hodisadir"¹.

Yozuvchilar ana shu vazifani ado etishda o'z iste'dodlari ko'lamini, o'z uslublarining rang-barang qirralarini namoyish etmoqdalar. Bugungi o'zbek romanlarida mavzu va g'oya masalasi muhim o'rin tutadi. Mavzuni yoritishda, g'oyaviy jihatdan puxta ishlanishida adib uslubi, uning mahorati ham namoyon bo'ladi.

Uslub yozuvchining o'ziga xosligini ko'rsatadigan adabiy hodisa bo'lsa, qahramon obrazi badiiy asar mohiyatini oydinlashtirishda muhim estetik ijtimoiy badiiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Demak, individual uslub va qahramon obrazi talqinini tadqiq etish yozuvchining ijtimoiy voqelik haqida, davr kishilari, ularning hayoti, faoliyati va o'y-kechinmalari to'g'risida o'ziga xos badiiy fikr

¹ I.A. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari va taraqqiyot shartlari.- T: O'zbekiston, 1997.-B.142.

yuritishni hamda poetik idrok etilgan voqelikni badiiy tahlil qila olishi xususida muayyan nazariy umumlashmalar qidirish imkonini beradi.

O'zbek adabiyoti, shu jumladan, nasri bugungi kunda yozuvchilarimizning ijodiy izlanishlari natijasida yangi pog'onaga ko'tarilmoqda. Ulug'bek Hamdam kabi bugungi o'zbek nasrining iste'dodli namoyandalari asarlarini tahlil qilish orqali o'zbek romanlarini o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin.

Mavzuning o'rganilishi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, yozuvchi Ulug'bek Hamdam hozirgi o'zbek nasrida samarali izlanishlar olib borayotgan ijodkorlardan biridir. Ulug'bek Hamdam asarlari qahramonlarining o'ziga xos ma'naviy olami qanday talqin etilganligi, yozuvchi asarlarida hayotning qaysi jihatlarini tasvirlashga moyillik mavjudligi hamda qahramonlarining umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'quvchi shuuriga ko'chirishning badiiy mezonlarini oydinlashtirganligini aniqlash masalasi mazkur ishimizning dolzarbligini belgilashga yordam beradi.

U.Hamdam ijodi adabiy tanqidchilikning diqqat e'tiborida bo'lgan. Jumladan, U.Normatov¹, Q. Yo'ldoshev², I.Yoqubov³, M.Pirnazarova, G.Avezova va boshqalarning tadqiqot, risola va maqolalarida ko'pgina yozuvchilar qatori Ulug'bek Hamdam asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini to'g'risida ham ayrim fikr va mulohazalar bildirilgan.

Ko'rinadiki, qayd etilgan maqola va risolalarda Ulug'bek Hamdam ijodining muayyan qismi haqida umumiy fikrlar aks etgan bo'lib, uni yaxlit va atroflicha tadqiq etish qo'yilmagan.

Bugungi romanlar va ularda mavzu va g'oya masalasi muammolari, yuqorida aytib o'tilganidek ilmiy- nazariy jihatdan muayyan darajada ishlangan.

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar.-T.Ma'naviyat.:2000.-B.61.

² Yo'ldoshev Q. Mustaqillik davri nasri:tahlil va talqinlar.O'Z .A.S.2005.20 May.

³ Yoqubov I. Kompozitsion parallelizm usuli// O'zbek tili va adabiyoti.2004. No-5.-B.62-64.

Ayrim yozuvchilarning romanchilikdagi o'ziga xos mahorati haqida ba'zi tadqiqotlar mavjud. Shunday bo'lsa ham, 90-2000-yillar o'zbek adabiyoti, jumladan, nasrida jiddiy badiiy yutuqlarga erishildi. Nasrimiz xuddi shu davrda yangi badiiy ufqlar sari intildi. Bularga misol qilib Shukur Holmirzayev, Normurod Norqobilov, Nazar Eshonqul, Tog'ay Murod, Shoyim Bo'tayev asarlarini keltirishimiz mumkin. Xususan, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Ulug'bek Hamdam romanlarining yaratilishi ham adabiy hayotimizning shu sohadagi an'alarini o'ziga xos badiiy tajribalar bilan boyitdi.

Ijodkorning o'ziga xos jihatlarini o'rganishga intilish hamisha adabiy tanqidchilikdagi asosiy vazifalardan biri bo'lib kelgan. Chunki ijodiy individuallik san'atkor merosining abadiyligini belgilovchi bosh mezondir.

XX asr o'zbek adabiyotida ham jahon adabiyotida ham tom ma'noda nasr asri bo'ldi. Dunyoning eng muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy muammo va fojealari keng qamrovli, serqirra nasrda o'z aksini topdi. Shu boisdan ham mazkur ishimizda XX asrning mustaqillikdan keyingi o'zbek nasri hamda adabiyotshunosligida kam o'rganilgan U.Hamdam ijodini asos qilib oldik. Yozuvchining ijodkor sifatida, yetuk san'atkor sifatida shakllanishida tug'ma iste'dodning roli ayniqsa ko'pdir. Iste'dod ijodiy imkoniyatlar yig'indisi, shaxsiy qobiliyatining ifodasi tarzida namoyon bo'ladi¹. Biroq uning ro'yobga chiqishi, kamol topishi shart-sharoit bilan bog'liqdir. Tabiiyki, iste'dodning shakllanishi va tarbiyalanishida ijodkor tug'ilib o'sgan muhit, etnogenezis, hatto bolaliklari taassurotlar, keyinchalik boshidan kechirganlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham haqiqiy ma'noda kamol topgan iste'dodni o'z zaminidan uzib tekshirib bo'lmaydi. Tug'ilib o'sgan muhit yozuvchining shaxsiyatiga muayyan ma'noda ta'sir qiladi va ayni paytda, badiiy asar shaxsiyatini ma'lum darajada o'zida namoyon etadi. Ayni paytda adib qahramonlaridagi o'zbek xalqiga xos g'ayrat-shijoat, yozuvchi asarlarida tasvirlangan gavjum shahar hayotiga moslashgan qishloqliklar xarakteridagi bir so'zlilik haqqoniyatparastlik u

¹ Davronova Sh. Adabiy jarayon va yozuvchining ijodiy individualligi. F.f.n.diss.avt. T.2004. B.9.

yaratgan timsollardagi samimiy odamlarga xos jihatlarda adib shaxsiyatidagi alohida belgilar namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan qaraganda, U.Hamdamning romanlari va ularning mavzu mohiyati, g‘oyaviy xususiyatlarini maxsus tadqiq etish adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biri edi va biz imkoniyat doirasida xuddi shu masalani maxsus tadqiqot orqali ilk bor o‘rgandik. Yana shuni qayd etish lozimki, o‘zbek adabiyotida o‘z mavqei va ijod ko‘lamiga ega bo‘lgan bu adib uslubi to‘g‘risida, ayrim matbuotdagi maqolalarni hisobga olmaganda, yaxlit kichik tadqiqot shaklidagi ilmiy ish ham birinchi marta yuzaga kelmoqda.

Mavzu maqsadi va vazifalari. Tadqiqotimiz oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad Ulug‘bek Hamdam romanlarini tahlil etish asosida ulardagi mavzu va g‘oya masalasini o‘rganish asnosida uning o‘ziga xos ijodiy uslub va badiiy mahoratini ko‘rsatishdan iboratdir. Yozuvchining individual uslubini ko‘rsatish uchun uning romanlaridagi qahramon obrazining yaratilishiga alohida ahamiyat berildi. Chunonchi, asar qahramonlarining ma'naviy olami, qahramonning mahalliy sharoit bilan uzviy bog‘liq holda harakatlanishi, uning milliy va umuminsoniy xarakterini yoritish asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qoldi. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni belgiladik:

- U.Hamdam romanlaridagi g‘oyaviy niyat va badiiy shakl, adibning zamonaviy mavzuga va davr muammolariga e'tibori kabi masalalarni o‘rganish;
- U.Hamdam ijodiga xos janriy, mavzu va shakl xususiyatlarini aniqlash;
- yozuvchi romanlarining yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik ma'naviy-ruhiy omillarga diqqat qaratish;
- adibning romanchiliklari o‘ziga xosligini poetik va uslubiy tahlil orqali aniqlash;
- U.Hamdam romanlarining badiiy-uslubiy, til xususiyatlarini kuzatish;

-hozirgi zamon o'zbek nasri tadqiqotida U.Hamdamning o'rni, mahorati, uslubi masalalariga oydinlik kiritish.

Mavzuning tarkibi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, to'rt fasl, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish 56 sahifadan iborat.

I bob Istiqlol davri o'zbek adabiyotida Ulug'bek Hamdam ijodi

1.1.Ulug'bek Hamdam nasriy asarlarining janriy xususiyatlari.

Adabiyotimiz tarixini kuzatadigan bo'lsak, o'tgan asrda Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Oybek kabi iste'dod sohiblari ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon sifatida o'zlarining adabiy shaxsiyatlarini namoyon etishgan. Bugun biz bilan hamnafas yashayotgan Ulug'bek Hamdamov ham olim, shoir, romannavis, hikoyanavis, tarjimon sifatida adabiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum. Haqiqatan ham u Fitrat, Cho'lpon, Oybek kabi yetuk ziyolilarimizning munosib izdoshi.

Ulug'bek Hamdamovning shu kungacha bir qator badiiy asarlari nashr etilgan. Shulardan «Yolg'izlik». Qissa va hikoyalar (1998), «Tangriga eltuvchi isyon» she'rlar (2001), «Isyon va itoat» roman (2003), «Muvozanat» roman (2004), «Atirgul» she'rlar (2005), «Seni kutdim» (2007), «Sabo va Samandar» Roman (2009), «Uzoqdagi Dilnura» Qissa, hikoya va she'rlar (2010), «Vatan haqida qo'shiq» (2014) kabi kitoblarini sanab o'tishimiz mumkin.

Ulug'bek Hamdamovning «Uzoqdagi Dilnura» nomli qissa, hikoya va she'rlari jamlangan to'plamiga adibning «Yolg'izlik» qissasi, «Tosh», «Uzoqdagi Dilnura», «Lola», «Qaytish», «Otash», «Yaxshi odamlar» hikoyalari hamda «Qirq yoshning tavallosi» sarlavhasi ostidagi yangi she'rlari tartib berilgan. Adabiyotshunos B.Karimov kitobning kirish so'zida muallifni turli janr va uslubda ijod etayotgan ijodkor sifatida qayd etib shunday deydi: «Ulug'bek adabiy-tanqidiy maqolalari, she'riy turkumlari, nasriy asarlari bilan adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Ijodkorning ko'ngil xazinasini turli janr va uslubdagi asarlar shaklida maydonga chiqadi hamda muallifning adabiy shaxsiyatini namoyon etadi»¹.

¹ Карим Б. Улуғбекнинг дил изҳори. // Узоқдаги Дилнур. Т.: Академнашр, 2010.-Б. 3.

Mazkur to'plamga kiritilgan ilk asar – «Yolg'izlik» qissasi B.Karimov, Q.Yo'ldoshev, R.Rahmat kabi olim, tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, noan'anaviy uslubda bitilgan.

Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev ham qissaning mohiyati haqida juda jo'yali fikrlar bildirib: «Yolg'izlik» qissasida esa aynan tartibsizlik, bo'lganda ham, voqelikdagi emas, inson xayolotidagi, kechinmalaridagi tartibsizlikning o'zi tasvirga olingan: Bil'aks, o'y-xayollarning tartibsiz va noizchil oqimini berishning o'ziga badiiy maqsad deb, qaraydi. Ma'lumki, xayolotda izchillik, muntazamlilik bo'lmaydi. Shuning uchun odam xayolni emas, xayol odamni yetaklab yuradi» - deydi¹.

"Yolg'izlik" milliy adabiyotimizda, sirtidan qaraganda, badiiy maqsadga bo'ysunmaganday ko'rinsa-da, aslida, o'ychil inson tafakkuri va hissiyoti manzaralarini yorqin namoyon etadigan ilkinchi asar bo'ldi. Qissa qahramonining o'ylarida tizgin yo'q, muallif ham go'yo bu xayollarni saralamay tasvirlaydi. O'ydan o'yga, xayoldan xayolga ko'chish jarayoni tasvirining o'zi qahramon tabiatiga xos xususiyatlarni saralangan badiiy muntazamlilikdan ko'ra to'laroq ochadi. Bu asar muallifning tajriba istagi tufayli emas, balki kuchli badiiy zaruriyat sababli paydo bo'lgan. Negaki, odamning o'ylari oqimidagina namoyon bo'ladigan insoniy mohiyatni boshqacha yo'l bilan ko'rsatib bo'lmaydi. Odamda ichi bilan sirti, tili bilan dili bir bo'lgan holatlar nihoyatda kamyob. U faqat o'ylaridagina o'zi bo'la oladi. Odam tizginsiz o'y oqimlari bilan yolg'iz qolgandagina o'ziga, o'zligiga qaytadi. Shunday holatni aks ettirish yo'li bilangina odam ruhiyatini to'laroq ko'rsatish mumkin bo'ladi. Bu qissa milliy nasrimizda odam o'zgacha tushunilgan va uning psixologiyasi shu yo'sinda chuqur tadqiq etilgan dastlabki asar bo'ldi.

¹ Йўлдошев Қ. Дардчил туйғу ва безовта рух. // Ёниқ сўз. Тошкент: янги аср авлоди, 2006, - Б. 511.

To'plamdagi muqaddimada B.Karimov Q.Yo'ldoshev fikrlariga hamohang tarzda shunday e'tirof etadi: «Yolg'izlik» muayyan bir qiziq voqea-hodisaning badiiy talqiniga bag'ishlangan emas, unda an'anaviy obrazlar, tasvirlar, manzaralar, dialoglar yo'q: u – monolog qissa. Shu ma'noda «Yolg'izlik» inson ruhiyatidagi jo'shqin va tushkun, o'ychan va o'ysiz kayfiyatlar, ismsiz iztiroblar mahsuli sifatida paydo bo'lgan»¹. Shuningdek Rahimjon Rahmat ham «Yolg'izlik» qissasiga yozgan so'ng so'zida Yozuvchi mazkur asarida «inson qalbining hamishalik bezovta, tahlkali qismini tasvirlashga uringan» – deb to'g'ri ta'kidlaydi².

Qisqasi Q.Yo'ldoshev, B.Karimov kabi olimlarimizning «Yolg'izlik» qissasi matnidan kelib chiqib bildirgan barcha fikrlari o'rinli. Qissa haqida ularning fikrlariga qo'shimcha sifatida ba'zi mulohazalarimizni bildirishimiz mumkin. Bu qissa avvalo, elitar adabiyot namunasi. Uni har qanday kitobxon o'qib, hazm qila olmaydi. Bundan «Yolg'izlik» tor doiradagi filologlar uchungina tushunarli bo'lgan asar degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. "Yolg'izlik" qissasi biz o'qib ko'nikkan an'anaviy romantik yoki realistik uslubda yaratilgan asarlardan tubdan farq qiladi. «Yolg'izlik»da muayyan bir syujet chizig'i, muayyan odamlar taqdiri, biz sevib o'qiydigan «dialog»lar ham yo'q. Unda yolg'iz ko'ngil kechinmalari aks etgan. Qissa biz til bilan ifodalab bera olmaydigan ong ostidagi, xotiralarimiz puchmoqlaridagi yashirin mayl-istaklar, iztiroblar, armonlar, orzularimizning uzuq-yuluq tasvirlaridan iborat.

«Yolg'izlik» asarining janri haqida ham turlicha qarashlar bor. Olimlarimiz tomonidan u hech bir janr qolipiga tushmaydigan g'ayriodatiy asar deb baholandi. Jumladan, yuqorida B.Karimov «monolog qissa» desa, Q.Yo'ldoshev «...milliy

¹ Б.Карим. Улуғбекнинг дил изҳори. // Узоқдаги Дилнура. Тошкент: Академнашр, 2010. -Б. 4.

² Раҳмат Р. «Бир ёруғлик излайман ҳамон...» // Ёлғизлик. Тошкент: Қатортол-Камолот, 1998. - Б. 92.

nasrimizda odam o'zgacha tushunilgan va uning psixologiyasi shu yo'sinda chuqur tadqiq etilgan dastlabki asar...» deb baholaydi¹.

Har ikkala olim ham qissaga xos xususiyatlarni juda to'g'ri belgilaydi. Ammo asarni monolog- qissa, psixologik - qissa deb atash bilan uning janri to'la aks etmayapti. «Yolg'izlik» asarida kundalik, iqornoma, esse kabi uch janr unsurlari ajib tarzda uyg'unlashib ketgan. Binobarin, qissa dastavval kundalik janri asosiga qurilganligi bilan e'tiborni tortadi. Shu bilan birga kundalik sohibining ich-ichida kechgan iqrirlari tafsilotining berilishi bilan iqornoma janrini ham esga soladi. Uchinchidan, qissada qahramonning (kundalik egasi – yigit) hayot, jamiyat, adabiyot, falsafa, din haqidagi turfa fikrlar oqimi asarni «esse» deyishimizga asos beradi. Har holda, asar janrini sof kundalik yoki iqornoma deb atasak ham noto'g'ri bo'ladi.

Xullas, asar adabiy qonuniyatlarini ko'zdan kechira turib, «esse-qissa» deb atasa to'g'ri bo'ladi. B.Karimov asar kompozitsiyasini juda to'g'ri kuzatadi: «Qissaning kompozitsiyasi hajm jihatidan bir-biriga teng kelmaydigan uch qismdan tarkib topgan. Asardagi asosiy mohiyat ikkinchi qismida namoyon bo'ladi. Birinchi qism voqealar tafsiloti, ijodkor yigit daftaridagi qaydlarni o'qishga kirishuv uchun muqaddima vazifasini o'tasa, muallifning asl muddaosi ro'yobga chiqqach, uchinchi qism shu daftarni yopish hamda qissani yakunlash uchun xulosa vazifasida keladi»². Olim juda to'g'ri e'tirof etganidek, qissaning ikkinchi qismida unutilgan kundalik daftar muallif-qahramon tomonidan o'qiladi.

Qissaning I qismidagi tasvirlar II qismidagi tafsilotlar, iqrirlar, tizginsiz xayol taftishlariga uyqash keladi. Ya'ni qulflanmagan ochiq eshik — qahramon qalbini ochishga ishora bo'lsa, uydagi besaranjomlik – inson hissiyotlari, xayolotidagi tartibsiz o'y-fikrlarni o'qishga tayyorgarlik ko'rishga kitobxonni

¹ Йўлдошев Қ. Дардчил туйғу ва безовта рух. // Ёниқ сўз. Тошкент: янги аср авлоди. 2006. -Б. 512.

² Карим Б. Улуғбекнинг дил изҳори. Тошкент: Академнашр, 2010. — Б. 3.

ogohlantirgandek bo‘ladi. "Yoqimli shovullayotgan daraxtzor" – insonning botiniga, his-tuyg‘ulariga quloq solishga da’vat etayotgandek. Ta’bir joiz bo‘lsa, U.Hamdamiyov "Yolg‘izlik" esse-qissasida inson botinidagi va zohiridagi "Men" to‘qnash kelgan sahnalarni yuzma-yuz turib tahlil eta olgan deyish mumkin. Kezi kelganda, aytish lozimki, Yozuvchining mazkur qissadan so‘ng yaratilgan barcha badiiy asarlari "Yolg‘izlik"ning farzandlaridir. "Yolg‘izlik" tomiri baquvvat, ulkan daraxt bo‘lsa, uning shoxlarida hil-hil bo‘lib pishib yetilgan mevalar- "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" kabi roman va o‘nlab hikoyalar, nazm javohirlari bo‘lib yaraldi. Bu fikrimizning isboti yozuvchining muxbir bilan bo‘lgan suhbatida yorqin aks etgan: "... men yana bir narsani aytishim kerak: men bitta asarni ikki xil "izm"da yozishga urinib ko‘rdim. "Muvozanat" uch-to‘rt yil avval nashr qilingan

"Yolg‘izlik" deb nomlangan dunyoni badiiy idrok etish darajasiga ko‘ra modernistik ruhdagi qissamning realizmdagi ko‘rinishi xolos. Men "Yolg‘izlik"da suvratni "yig‘ishtirib qo‘yib" faqat mohiyatdan bahs etmoqchi bo‘lganman"¹.

"Uzoqdagi Dilnura" kitobiga kiritilgan "O‘zim bilan yuzma-yuz" qismida berilgan "Yolg‘izlik" qissasidan tashqari, oltita hikoya kiritilgan. Hikoyalarni uslub jihatidan ikkiga ajratish mumkin: an’anaviy realistik uslubdagi hikoyalar ("Uzoqdagi Dilnura", "Yaxshi odamlar") va noan’anaviy modernistik uslubdagi hikoyalar ("Tosh", "Lola", "Qaytish", "Otash").

"Uzoqdagi Dilnura"da boshqa hikoyalardan farqli ravishda yozuvchi qahramon ruhiyatini ochishda dialogdan unumli foydalangan. Hikoya qahramoni Kozim olis qishloqdan shaharga kelib, o‘z mavqeini tiklab olgan tadbirkor, uchar yigitlardan hisoblanadi. Ulug‘bek Hamdamning barcha nasriy asarlarida ma’lum ma’noda avtobiografik detallar yetakchilik qiladi, Yozuvchining shaxsiy hayotiy tajribalari, qarindosh-urug‘lari, do‘stlari hayoti va qismatiga doir real voqealar

¹ Ҳамдам У. Умумдарад тасвири. / Янгиланиш эҳтиёжи. Тошкент: Фан, 2007.-Б. 184.

birinchidan, adibga badiiy asar uchun xom-ashyo vazifasini o'tasa, ikkinchidan, betakror va original taqdir egalari, ruhiyat talqinlarini kashf etishga imkon bergan. Xususan, "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasi qahramoni Yunus amaki obrazi yozuvchining tog'asi. Demak, bu obrazning hayotiy prototipi mavjud. Adibning tog'asi bilan bog'liq bolalik xotiralari badiiy to'qima haqiqatga aylantirilgan. Hikoyada Kozim hayoti misolida juda muhim ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolar o'rta tashlangan.

Kozim ruhiyatida mehr-oqibat, qon-qarindoshlik singari insoniy hislar bilan birga boylik va aysh-ishratga hirs qo'yish kabi bir-biriga zid tuyg'ular yashaydi. Ulug'bek Hamdam shu paytgacha yaratgan Yusuf ("Muvozanat"), Akbar ("Isyon va itoat"), Sherdil ("Sabo va Samandar") kabi qahramonlari singari Kozim obrazini ham ideal inson sifatida tasvirlamaydi. Aksincha, uning ruhiyatidagi ikki xil bir-biriga zid qiyofani ochib beradi. Hikoyada ba'zi bir yalang'och-ochiq satrlar ham uchraydi. Xullas, U.Hamdami inson ruhiyatining sirli, ko'p qirrali, keng olamini badiiy talqin etishda ham realizm, ham modernizm uslubi an'analardan unumli foydalanib, turfa dunyoqarashga ega zamondoshlarimizning ichki ruhiy dunyosini kashf etadi. Yozuvchi jamiyatimizdagi turfa xil saviyadagi ijtimoiy qatlamlarni juda yaqindan bilishi hikoyada yorqin sezilib turibdi.

Adib asarlarida qahramon ruhiyatini ochishda, asosan, qarama-qarshi tuyg'ular kolliziyasi yetakchilik qiladi. Natijada ruhiy tasvirda har tomonlama ishonarli, yorqin obrazlar va xarakterlar yaratilgan¹.

Yozuvchining "Qaytish" hikoyasi ommabop, biroz yengil planda yozilgan "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasidan tubdan farq etadi. Chunki "Uzoqdagi Dilnura"da muayyan voqealar, qahramonlar, shuningdek, dialog singari badiiy tasviriy vositalar yetakchilik qilgan bo'lsa, "Qaytish" hikoyasi avtor bayoni va qahramonning ichki monologi asosiga qurilgan. Hatto qahramonning ismi ham noma'lum, shunchaki "U" deyiladi. Hikoyaga xos tasvir uslubi "Yolg'izlik"

¹ Кўчкорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. Тошкент. Мухаррир. 2011. Б.-162

qissasini esga soladi. "Yolg'izlik"dagi o'zini-o'zi taftish etish ohangi mazkur hikoyaga ham birdek tegishli. Asar qahramoni qirq yil xizmat qilgan ishxonasidan ketadi. Ma'lumki, inson jamiyatda sevgan kasbi, kundalik faoliyati, oilasi, do'stlari bilan tirik. Shu tariqa uning hayoti ma'lum ma'noda mazmun kasb etadi. "Qaytish" hikoyasi qahramoni oltmish yoshdan oshgan erkak. Xotini vafot etgan, bola-chaqasi o'z-o'zi bilan ovora bo'lib ketgan. Ko'rinadiki, Yozuvchi "nima sababdan ishdan ketishi" ahamiyatsiz bo'lgan yolg'iz erkak ruhiyatini tahlil etadi. Yanada aniqrog'i qirq yil davomida uyoq-buyog'iga qaramasdan, bosh ko'tarmasdan ishlagan erkakning ruhiyatini ochib beradi. Albatta, qirq yil davomida inson hech narsani his qilmasdan mehnat qilishi bo'rttirilgan bo'lsa-da, bunday tasvirda Yozuvchining aniq badiiy niyati, maqsadi borligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi hikoyani "Qaytish" deb nomlar ekan, mazkur so'zda ham qahramon ruhiyatiga daxldor ramziy-majoziy ma'no aks etgan. Ya'ni "U" qirq yillik xizmatdan so'ng, o'z ko'ngli bilan yolg'iz qoladi. U qachonlardir quyosh taftini, gullar iforini, qushlar chug'ur-chug'urini his etar edi. "U" qirq yillik mashaqqatli mehnat faoliyati davomida his etishdan mahrum bo'lgan. Uzoq vaqtdan so'ng "ishdan ketgan erkak" hissizlik olamidani yana insoniy hislarni qalbida tuya bilish holatiga qaytadi. Yig'lash, kulish, nafratlanish, zavq olish bular insonga xos bo'lgan insoniy xislatlar. Shu ma'noda, hikoya "Qaytish" deb nomlanadi. Ko'rinib turibdiki, mazkur hikoyada bugungi shiddatkor va tezkor zamonning fojeasi, ishga ko'milib qolgan zamondoshimizning ma'naviy tragik holati talqin egilgan.

U.Hamdami asarlarini kuzatish jarayonida uning ko'pchilik asarlarida erkaklar ruhiyati va xarakteri chuqur ochilganini anglash mumkin. Yana bir narsani aytish lozim, yozuvchi o'zidan yigirma-o'ttiz yil oldin ilgarilab yuradi. Yigirma besh-o'ttiz yosh orasida o'ttiz besh-qirq yashar erkak (Yusuf "Muvozanat" romani), qirq yasharligida oltmish yoshli erkak ("U" - "Qaytish" hikoyasi), qirq yoshida qirq yashar (Samandar, Sherdil "Sabo va Samandar" romani) va hakozi yuzdan ziyod erkak va ayollar obrazini yaratgan. Bu taxlit fikr beixtiyor adabiyotshunos H.Umurovning quyidagi jumllarini esga tushiradi: "Adabiyotning

shu vazifasi va yozuvchilik kasbining shu fazilati tufayli biz qoloq kishi tarjimai holining ilg'or kishi tomonidan (Abdulla Qodiriy tomonidan Kalvak Mahzum va Toshpo'lat tajang «Xotiralari»ning yozilishi) yoki ayol ichki dunyosining erkak tomonidan har taraflama, tushunarli va yorqin tasvirlab berilishi (Navoiyda Shirin(ning maktubi), Floberda Bovari xonim, Tolstoyda Anna Karenina, Hamzada Xolisxon sarguzashtlari) kabi ajoyib hodisalarning guvohi bo'lamiz"¹. Xuddi shuningdek, U.Hamdam badiiy prozasida ham keksayib, munkillab qolgan yolg'iz kampir (Larisa xola «Isyon va itoat»), mehnatdan boshqani bilmaydigan dehqon (Tursunboy jontalash «Isyon va itoat»), sevgida kuyib, ado bo'lgan so'qqabosh erkak (Otabek – Otash «Otash»), tadbirkor uchar yigit (Kozim «Uzoqdagi Dilnura») kabi rang-barang obrazlarning hayoti va qismati bilan duchlashamiz. «Otash» hikoyasida qalamga olingan qahramon taqdiri va uning hayoti bilan bog'liq voqealar «Qaytish» va «Uzoqdagi Dilnura» asarlaridan ham mutlaqo o'zgacha. Hikoyada bir qator badiiy tasvirlar, jumladan, tush, peyzaj, qahramon tomonidan chizilgan suratlar, telefon kabi barcha detallar yaxlit holda birlashib, asar kahramoni Otash (Otabek)ning ruhiy dunyosini kashf etishga qaratilganini his etish mumkin. Otash sevgida omadsizlikka uchragan baxtsiz erkak timsoli.

Yana asarda muvaffaqiyatli chiqqan o'rinlardan biri surat bilan bog'liq tasvirlar deyish mumkin. Otash umri davomida rassom bo'lib, ikki xil surat chizadi, bittasi daraxt, ikkinchisi sevgilisi Soliyaning surati. U shu darajada ko'p suratlar chizadiki, uning to'rt fasldagi barcha ko'rgshishlari ijodida barq uradi. Bora-bora rassom yigit chizgan daraxtlarda sevgilisining qiyofasi o'zi sezmagani holda chizilaveradi.

"Yolg'izlik" esse-qissasida daraxt va daraxtzor tasviriga ko'p o'rinlar ajratilgan, jumladan: "Tashqariga ko'z soldim — daraxtzor. U ham o'z harakatiga munosib ravishda yoqimli shovullardi"². "Otash"da daraxt obrazi yanada

¹ Умуров Х. Қаҳрамон маънавий олами ва эликлик. Тошкент: Фан, 1995. -Б. 3-4.

² Ҳамдам У. Ёлғизлик. / Узоқдаги Дилнурс. Т: Академнашр, 2010. - Б. 10.

badiiylashtiriladi: "Sirasi, u daraxtni turli ko'rinishlarda chizgan edi: hamma fasllardagi, hamma ko'rinishlardagi daraxt rasmlarini solgandi. Nazarida, daraxt inson ko'nglidagi keraksiz ho-yu havaslarni tashqariga quvib haydardi. Dunyoning o'tkinchiligi va umrining omonatligi to'g'risidagi eng go'zal, eng ta'sirli qo'shiq daraxtga tegishli edi. Shoxlarida xoh yaproq bo'lsin, xoh bo'lmasin, qat'iy nazar, tinglay bilgich –qalb qulog'i ochiq odamlar uchun daraxtlar hamma vaqt — qishin-yozin hikmat aytadilar, ha..,"¹. Umuman, daraxt obrazi U.Hamdami ijodida juda ko'p bora murojaat qilingan ramziy obraz. Daraxt va daraxtzor Yozuvchiga ilhom beruvchi tabiat manzarasi sanaladi. Xullas, «Otash» hikoyasida muhabbat bilan nafrat o'rtasidagi bir qadam yo'l Otabek hayoti misolida ishonarli ko'rsatib berilgan.

Adibning «Tosh» hikoyasi modernistik asar bo'lib, hikoya sarlavhasidan so'ng qo'yilgan «Yoki yovuzlikning tug'ilishi» ilovasi asarda ilgari surilmoqchi bo'lgan g'oyani topish uchun kalit vazifasini o'taydi. «Tosh», «Otash», «Lola» hikoyalaridagi ko'pchilik fikrlar, aslida «Yolg'izlik» qissasidan sitilib chiqqan satrlar deyilsa bo'ladi.

"Lola" hikoyasi "Yolg'izlik" qissa va hikoyalar to'plamida dastlab "Gardkam" nomi bilan e'lon etilgan². Tadqiqotchi G.Sattorova mazkur asarni "hikoya real voqealar emas, Yozuvchi sub'ektiv dunyosida kechadigan noreal voqealar asosiga qurilgan" – deb to'g'ri ta'kidlaydi³. Hikoyada lola obraziga bot-bot urg'u beriladi. Nazarimizda, hikoyaning "Gardkam" deb atalishida biroz mavhumlik mavjud edi. Ikkinchi nashrda hikoya sarlavhasi "Lola" deb atalib, hikoya matni biroz tahrir etilgan. G.Sattorova hikoyadagi muhim estetik idealni shunday tahlil etadi: "Lolani muayyan maqsad ramzi deb belgilash o'rinsiz. ...

¹ Хамдам У. Оташ. / Узоқдаги Дилнура. Т: Академнашр, 2010. - Б. 136.

² Гардкам / Ёлғизлик. Тошкент: Катортал-Қамолат, 1998. Б. 101-105.

³ Сатторова Г. Миллий характер ва бадий талқин. Тошкент: Фан, 2007, - Б.

Hikoya Sharq falsafasiga xos komillikni targ'ib etadi. ... Xullas, "Gardkam" qahramoni intilgan ideal moddiy emas, balki ilohiy, ruhoniylar ideali¹.

Hikoyani tadqiqotchi mulohazalaridan boshqacharoq tarzda ham tahlil etish mumkin. Avvalo hikoyaning badiiy kompozitsiyasiga e'tibor qaratsak, "Lola"da ham xuddi "Tosh" hikoyasidagi kabi voqealar I shaxs "men" tilidan bayon etiladi. Birinchi satr "Shundoq ro'baro'mda qoya - qirrador toshli, tik va bahaybat. Ustida hilpirab turgan alvonrang, vahshiylarcha go'zal lolaga hamma o'zini uradi"². Beixtiyor bu satrlar shoir Oybekning "Nafis chayqaladi bir tup na'matak, Yuksakda shamolning belanchagida" she'rini yodga soladi. Mazkur hikoyadagi qoyalar tepasidagi go'zal lola obrazi Oybekning "Na'matak" she'ridan ta'sirlanib yaratilgan. Ammo U.Hamdamning lola obrazi peyzaj tasviri emas, unda Yozuvchining muayyan badiiy maqsadi, ramziy estetik ideali aks etgan. Hikoya ko'p jihatdan fransuz yozuvchisi A.Kamyuning "Sizif haqidagi afsona" esselerini esga tushiradi. Har ikkala asarni yonma-yon qo'yib tahlil etish mumkin.

A.Kamyu esselari XX asr boshlaridagi fransuz badiiy tafakkurida muhim o'rin tutadi. Esseda qalamga olingan Sizif kurashchan va sabotli inson timsoli bo'lsa, xarsangtosh ramziy ma'no kasb etadi. Sizifning irodasi toshdan ham mustahkam, yengilmas, ruhan xudolardan ustun chiqadi. Bu ma'nisiz ishdan takror-takror bajarishiga sabab, xarsangtosh Sizifning shaxsiy g'am-tashvishi hisoblanadi. Shuning uchun ham u xarsangtoshdan voz kecha olmaydi. Sizif - bugungi kun kishisining timsoli.

Xullas, Sizif singari "Lola" hikoyasi qahramoni ham yangi-yangi cho'qqilarni zabt etishdan charchamaydi. Bu esa insonning metin irodasini, ma'nisiz hayotdan ma'no topib yashayotgan aql-u zakovatini mazkur kichik bir hikoyada namoyish etib turibdi³.

¹ Ўша китоб. - Б. 107-108.

² Лола / Узокдаги Дилнурс. Тошкент: Академнашр. 2010. Б.- 123.

³ Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. Тошкент. Мухаррир. 2011. Б.-163

"Yaxshi odamlar" hikoyasi "Uzoqdagi Dilnura" kitobiga kiritilgan hajm jihatidan eng yirik hikoya. Asarning bosh qahramoni Ibrohim qahraton qish kunida o'g'li bilan mashina eshigini ocha olmasdan anchagina qiyinchilik ichida qolishadi. Ibrohimning bora-bora atrofdagilarga ishonchi susayib, ko'ziga hamma pul undirish maqsadida unga yordamga kelayotgandek bo'laveradi. Uning qalbida batamom yorug'lik, yaxshilikka umid o'chgan paytida notanish Yo'lovchilar kelib, unga xolis xizmat ko'rsatishadi. Hikoya yakuni hayotda yaxshi insonlar borligiga ishonch ruhi bilan yakun topadi.

1.2. U.Hamdami romanlarida muhabbat mavzusi

Roman janrida mavzu muhim o`rin tutadi. Adib mavzu tanlar ekan, shu mavzuni yoritishda o`z mahoratini namoyon qiladi. Uning romanlarida muhabbat mavzusi ham ifoda va mohiyat e`tibori jihatdan o`ziga xos o`ringa ega. Inson ruhiyatini talqin qilishda adibning qanday yondashuvni tanlashi uning uslub va mahorati bilan bog`liq. Psixologizm adabiyotda uch asosiy ko`rinishda: adabiyotning tug`ma belgisi, muallif psixikasining muayyan ifodasi, muallif tomonidan ongli tanlangan, asar yaxlitligini belgilaydigan estetik tamoyil sifatida namoyon bo`lishini e`tiborga olsak, roman janrida psixologik yo`nalishning yanada yorqinroq bo`y ko`rsatishiga amin bo`lamiz.

D.Quronov Ulug`bek Hamdamning “Sabo va Samandar” romanida “lirik-romantik yondashuv bilan ramziy-majoziylikning uyg`unlashuvi kuzatiladi” degan munosabatni bildiradi. Bu to`g`risida adibning o`zi “Muvozanat” hamda “Isyon va itoat” romanlarining obrazlari haqida gapirar ekan, ularni do`stlari, mahalladoshlari, qarindoshlari orasidan tanlaganligini ta`kidlaydi.

“Adibning romanni yozishdan maqsadi yangi zamonning Layli va Majnunlari obrazini yaratish edi. Samandarning ushbu dostonning ashaddiy muxlisi sifatida uni deyarli yoddan bilishi tasodifiy emas. Majnun qismati tasvirida bo`lgan kabi Shayx taqdiri xatti-harakatlari talqinida hazrat Navoiy o`z qahramonini aslo tanqid qilish, fosh etish yo`lidan bormaydi. Balki yengil, latif bir tabassum bilan uni tushunib, avaylab, ardoqlab qalam tebratadi”<sup>1</sup>.—deydi adabiyotshunos U.Normatov. Ulug`bek Hamdam bu asarini go`zal muhabbat mavzusida yozar ekan, u ham xuddi Alisher Navoiy kabi o`z qahramonini ardoqlaydi, ularning hech bir xatti-harakatiga e`tiroz bildirmaydi, ularning borligicha tasvirlashga harakat qiladi. Asar shunisi bilan qimmatlidir.

Adibning Samandari ham Navoiy ijodiga, xususan “Layli va Majnunga qayta-qayta murojaat etadi. Bu esa Samandarning ishqini ideallashtiradi.

Darhaqiqat “Layli va Majnun” dostonida bo`lgani kabi Sabo ham Samandar ham yozuvchining individual uslubi va mahorati natijasida o`quvchiga asar boshdan oyoq betakror oshiq-ma`shuq siymosini namoyon etadi. Asarda Samandar

¹ Normatov U Bugungi nasrimizning yetakchi tamoyillari. // O`zbek tili va adabiyoti. 2001. 3-son, -B. 3-9.

obrazida go‘yo Saboni uchratguncha orzusidagi malikani uchratish orzusi bo‘lgan. Romanda muhabbat qissasining tuguni–Sabo va Samandarning ilk uchrashuvi yozuvchining betakror uslubi bilan yanada hayajonli aks etadi. Hali auditoriyada o‘tirgan Saboni ko‘rmasdan gapirayotgan gapini yo‘qotgan Samandar uni ko‘radi-yu darrov taniydi. U izlagan, xayolidagi go‘zal, shu paytgacha tinch qo‘ymagan pariroy shu edi.

Hamidulla Boltaboev aytganidek, “...inson doim o‘zligini axtarib yashaydi. Mana shu axtarishlar, izlanishlar jarayonida har bir narsaga-gulga, yulduzga, zaminga yuzlanadi. Ko‘zlardan, dillardan, ranglardan o‘zini izlaydi. Nimanidir, kimnidir topganday bo‘ladi. Topganida topinib yashaydi”¹ Bu e’tirof Samandar uchun aytilganday go‘yo. Chunki Samandar ham tushidagi, xayolidagi malikani izladi. Va topdi. O‘zini ko‘zlardan izladi va uni Saboni ko‘zlaridan topdi. Sabo ham ishq gulzorida Samandardan kam kezmasdi. Har ikkalasi ham hayot yo‘llari qayerga boshlasa, nimani ularga ro‘baro‘ qilsa-da, topganlariga topinib yashashdi. Romanda Sabo Samandarni ishqida shunday deydi: “...agar muhabbat ba’xt bo‘lsa, men poyingga tiz cho‘kib, ishqdan o‘zga baxt so‘ramayman! Menga shuni ber va to tirik ekanman, meni undan mahrum aylama! Men ishqning uyida so‘nggi nafasimgacha qolishni istayman. Ishq bilan ko‘z ochib, ishq bilan ko‘z yumsam deyman! Meni shu erda to‘xtat, meni hayot deb atalmish yo‘lning ishq bekatida tushurib va unitib qoldir, ey Parvardigor!...” (87-88).

Oshiq a ma’shuqaning ishqdan mastona qiyofasini, ruhiyatini shu uslubda chiza olgan adibning uslubi o‘ziga xoslik kasb etishi bilan yanada oydinlashadi. “...Uslub-yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, bezagi, o‘zligi. Uslub-yozuvchi falsafasi in’ikosi”²-degan edi adabiyotshunos A.Rasulov. Bizningcha, Ulug‘bek Hamdam ham obraz yaratishda o‘z uslubidan boradi.

¹ Boltaboev X- Nasr va uslub. Toshkent.: Fan, 1992. - B. 105.

² Rasulov A. Hozirgi o‘zbek tanqidchiligida tahlil va talqin muammosi. (XX asrning 80-90-yillar materiallari asosidla). F.f.d.diss.avto. Toshkent.: 2002. -B. 44.

Saboni otasi qizini vazirlikka ko'tarilishida moddiy yordam bergan bo'ynig o'g'liga uzatadi. Sabo ham otasiga qarshilik qilolmaydi. Bir farzand sifatida o'z burchini ado qiladi. Samandar alamini ichiga yutdi. Shu o'rinda Samandardagi harakatsizlikni ojizlik debmi, yoki taqdirga tan berish deb o'ylash kerakmi. Chunki u sevgisi uchun dunyoni ag'dar-to'ntar qilmadi. Ammo ko'ngil vayron bo'ldi. Unga Saboning borligi va borligini his qilib yashash ham baxt edi. Samandar barcha ishi, xatti-harakatlariga xolis baho bera oldi. Ko'ngil yarasini vaqt davolaydi deb o'yladi, lekin vaqt dardini davolamadi-yu, Saboni unita olmadi. Sabo ham oilasini, bolalarini Samandardan ustun qo'ygani bilan undan voz kecha olmadi. Uning sevgisi bilan yashayotgan yuragi o'lim sari etaklashini bilsa-da, bu ahddan qayta olmadi. U oilasiga, farzandlariga ko'milib ketolmadi. Sabo bir ayolga xos matonat, nafosatning eng go'zal namunasini o'zida mujassam etdi. Vaholanki, ruhiyatida iztirob mujassam edi. Yozuvchi nafaqat sevgi-muhabbat tarannumi, balki mehr-oqibat tuyg'ularini, bunga jamiyatdagilarning munosabati, moddiy va ma'naviy hayot o'rtasidagi tafovut va bog'liq jihatlarni tahlil qilishga bel bog'laydi. Ana shundan kalib chiqqan holda asarga Samandarning do'sti Sherdil obrazi kiritiladi. Shu bilan birga Sherdil Samandarga haqiqiy raqib sifatida ham namoyon bo'ladiki, buni yozuvchi kitobxondan sir tutadi. Bu balki yozuvchi uslubiga xos jihatdir. Lekin bundan ko'zlangan maqsad raqibimizni ham jisman ham ma'nau ilg'ay olishga qodirmizmi shuni ko'rsatish emasmikin.

Ulug'bek Hamdam romanlari bugungi milliy adabiyotimiz maydonida turli bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan ruhiyat masalasini tahlil etish va hozirgi adabiy jarayonda yuz berayotgan o'zgarishlarni izchil talqin qilishga xizmat qilmoqda. "Sabo va Samandar" romanining bosh qahramoni Samandar hayot, jamiyat, o'zlik haqidagi fikr-mulohazalar yuritadi va ishq uning qalbida yetakchilik qiladi. Shu sababli ham Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" asariga qayta-qayta murojaat etadi. Adib Samandar obrazi orqali haqqa, haqiqatga, o'zlikka bo'lgan intilishni ishq-muhabbat orqali ko'rsatib bergan.

Ulug'bek Hamdamning "Na'matak" mini romani o'ziga xos majoziy talqindagi roman hisoblanadi. Bu romanda ham eng oliy tuyg'u muhabbat umr

mazmunining asosi ekanligi haqida ramziy ma'noda aks ettiriladi. Ijodkor tilsim kalitini izlovchidir. Tilsimlarni ochuvchi "sim-sim" degan so'zni topish ahli ijod orasida kamdan-kamiga nasib etadi. "Na'matak" biz bilgan butaning nomi. Yozuvchi uni asariga ism qilib berkitdi. Asar voqealari sodda ifodasi ham oddiy, lekin bu voqelik zamirida ramziy ma'no yotibdi. Yozuvchi asarda na'matakni butadan ismga aylantira olgan. Voqea, kechinmalarni hikmatga payvand etgan. Har qanday hikmatning ibtidosida fikr turadi. Yozuvchi qalamga olgan voqeada bobolar avlodining muhabbati sabab asli anglangan ism, otalar nafsining adovat boltasi bilan tag-tubidan uzib tashlanadi. Natijada ism yo'qoldi. Vaqt yetib bolalar qonida ism uyg'onadi. Ular uyg'ongan hisning nima ekanligini avval bilmaydilar, o'zgalardan so'ramoqchi bo'ladilar, lekin so'rash mavridi yetmaydi. Tabiiy vaziyat o'zlaridan izlashga undaydi. Anglaydilarki, kishi o'z ko'ngil xazinasiga yo'l olsa, ismni topadi.

Ismga muhabbat yo'lchi yulduz bo'ladi. Adib asar nomiga berkitgan sir voqealar bayonida ochilgan. Na'matakning biz ko'nikkan buta emas, yozuvchi kashf etgan ism ekanligi oydinlashgan. Aslida butun borliqning sirlari ismlarda qulflangan.

Ijodkorning yo'li ismni topib, boshqalarga bildirishdir. Ismni topgan aslini topadi. Yozuvchi asarni mini roman deb sifatlagan. Chindan-da, asar ulkan epik qamrovli voqelikni qisqa hajmga jamlagan. Xuddi xalq qo'shiqlaridek bir hikmat naqorat bo'lib, uch qismni birlashtirib-bog'lab turibdi. Adib hikmatga badiiy maqsadni ochuvchi kalit vazifasini yuklagan. Hikmatlarni ifoda shaklida voqelik tasviri va mazmuniga uyg'un, tadriijiy ko'rinish olganligi bejiz emas.

Aslida hukm Yaratganning kalomida turadi, bandaning aytganlari da'vo deb baholanadi. Lekin vaslga yaqin kelgan So'z Kalom iqlmiga majoz shaklida kira oladi. "Na'matak"-majoziy asar.

"Isyon va itoat" romanida zamondoshlarimiz qismati aks ettirilgan. Lekin Ulug'bek Hamdam inson zotining kuchli va ojiz jihatlarini xilma-xil nuqtai nazarlarda aks ettiradi. Ayniqsa, bashariyatning ilk tarixi bilan qiyosiy tahlil etishda ilohiy mazmundagi kiritmalardan foydalanish ijobiy natijalar bergan. Odam

zotining tavba, anglash, his etish yo'lini o'tib itoatga kelishi, haq yo'ldagi bandasining hidoyat qilinishi bilan bog'liq ilohiy-falsafiy fikrlar birmuncha hayajonli o'y-mulohazalar orqali Akbar obrazi misolida ilgari suriladi. Romanda kimsaning kimsaga tobeligi va itoati haqida so'z bormaydi. Aksincha, inson qalbining nozik jilolari: fe'l-atvori, ruhiyati, ko'ngil talpinishlari badiiy talqin etiladi.

“Isyon va itoat” ilm va amalning teran ixlos asosiga qurilishi lozimligi, Olloh bilan ruhiy munosabatda bo'lishdan keladigan ko'ngildagi farog'at aks ettirilgan falsafiy-psixologik romandir. “Isyon va itoat” romanidagi badiiy-falsafiy xulosalar ko'lami u qadar keng va salmog'i yetarlicha emasday tuyuladi. Lekin “Muvozanat” romani yetilishi, yaxshi va yomonni bilish daraxtining mevasi “ta'qiqlanishi”, Havvoning yaratilishi, Odam va takabbur Shaytonning munosabatlari, Odam va Havvoning ko'ngil xohishlariga ergashib “ta'qiq”ni buzishgani, qasoskor Iblisning fitnasi tufayli azaliy makondan chiqarilishi bois Odamning chekkan iztiroblari, itoatga kelib mag'firat qilinishi voqealari Qur'oni Karim sura va oyatlari, shuningdek rivoyatlar orqali beriladi. Bu kiritmalar roman voqealaridan mustaqil tarzda yondosh tarzda berilgan. Lekin asarning g'oyaviy-badiiy maqsadini ochishda ular nihoyatda kuchli ravishda uyg'unlashtiriladi.

Ulug'bek Hamdam - bezovta ruhga ega ijodkor. U biladiki, ruhiy holat oldin his etiladi, so'nggina mantig'i anglanishi mumkin. Shu bois nafrat-u muhabbatning sababini hamisha ham mantiq bilan izohlab bo'lmaydi. Har qanday kuchli mantiq ham juda omonat, uni yasash ham, moslash ham, moslashish ham mumkin:

Ulug'bekning asarlari uning tuyg'ulari, o'ylari, iztiroblari manzaralaridir. Bu manzaralar esa yolg'izlik, muvozanat, isyon va itoat atalmish ruhiyat manzillarida yorqinroq namoyon bo'ladi¹.

Biz odamning asl qiyofasi uning xatti-harakatlarida yaqqol ko'rinadi degan to'xtamni haqiqat deb hisoblashga o'rganganmiz. Aslida, odamning asl qiyofasi harakat qilayotgan, faoliyat ko'rsatayotganda emas, balki o'zi, ko'ngli, xayollari

^{1 1} Ёўлдошев Қ. Дардчил туйғу ва безовта рух. // Ёник сўз. Тошкент: янги аср авлоди. 2006. -Б. 512.

bilan yolg'iz qolganda yorqinroq ko'rinadi. Lekin bu qiyofa sirtini ifoda etmaganidek, sirtida namoyon bo'lmaydi ham. Uni bilmoq uchun odamning botinini tuymoq lozim bo'ladi. har bir odamda botinga yetib bormoq, uni tuymoqning birgina yo'li bor: o'z-o'zini ayovsiz taftish etish. Uning bitganlarida o'zi va o'zligi bo'lishini astoydil istaydigan hamda shunga chin dildan intilayotgan kishi siyrati yorqin aks etadi.

Suygan va kuygan odam uchun ayriliqda ham visol imkoni bo'laveradi. Ko'nglidan joy olgan odamning yo'qligiga ko'nikkan, lekin har bir yaxshi onida uni eslaydigan murakkab tuyg'uli kishining yuqoridagiday dil izhori samimiy va ta'sirli.

Ko'ngil kishisi bir umr yolg'izlik istab, unga intilib, uni qo'msab va undan qo'rqib yashaydi. Tuyg'u kishisining dilini anglash va ovlash odamga qiyin yumush. Binobarin, bunday kinshda atrofdagilardan yozg'irish imkoni hamisha bo'laveradi. Lekin Ulug'bekning asarlarida tuyg'ulari ezgu va teran kishining yoniq ruhiy holati ifoda etiladi:

Odam ham, olam ham muvozanatsiz yashay olmaydi. Muvozanatning buzilishi tanazzulga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Shuning uchun ham asl matlabi kishini ruhiy va fikriy muvoza-natdan chiqarish bo'lgan she'riyatda ham ma'naviy qadriyatlar mu-vozanati saqlanishiga jiddiy e'tibor beriladi. Lekin estetik muvozanat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan o'rnatilmaydi. Unda ruhiy quvvatlarning energiyasi muhim hisoblanadi. Ulug'bek Hamdamning asarlari orasida inson sezimlaridagi ezgu va yoqimsiz sifatlarga bardoshliroq qarash, yoqmagan ma'naviy xususiyatlarni inkor etibgina qolmay, ularni tadqiq qilish va tushunishga urinish aks etganlari ham anchagina.

Inson tug'ilishdan oldin ilohiy visolga noil edi, u bir tomchidan yaralgan, jinsi va taqdiri belgilangan edi. Bu foniylar dunyoga kelmasdan avval begunoh, beg'ubor edi. Foniylar dunyo visoliga erishish bilan hijron boshlandi. Shu bois endigina dunyoga kelgan chaqaloq chinqirib yig'laydi, to tana tirik ekan davom etadigan bu uzoq ayriliqni istamay, isyon qiladi. Shuning uchun ham ko'ngil

odami betartib tartiblarni buzaroq, Allohga yetkazguvchi yo'lni izlaydi. Izlagani sayin faqat Ugina chin ekanligini anglab boradi:

Dunyo – Yaratganning jilvasigina, xolos. Undagi hech narsa haqiqiy emas, oynadagi aksni ushlab bo'lmaganidek, bu dunyoda ham aslga yetib bo'lmaydi. Inson tug'ilish bilan fanoga tegishli bo'ldi, uning jismi ko'ra, eshita, nafas ola boshladi. Oynada aks etgan jimsiz borliq ro'yo ekaniga ruh ko'zlarini jism qorachiqdari berkitgani sababdir. Ko'rinadiki, ko'rishi kerak bo'lgan narsa ko'rmaslikka sabab bo'ladi. Shoirni Yaratgandan boshqasi yolg'on ekani junbushga keltiradi, uning ruhi tiyiqsiz bir ishtiyoq bilan isyon ko'taradiki, bu uni Tangri sariga eltishi mumkin bo'ladi.

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" hamda "Isyon va itoat" romanlari esa adabiyotimizdagi ulkan bir kemtiklikni to'ldirdi. Ungacha milliy romanlarimizda inson, asosan, mehnat va faoliyat bag'rida ko'rsatilardi. Yosh yozuvchi adabiyotda murakkab va chigal o'ylar og'ushidagi o'zbekni tasvirlashni boshlab berdi. Natijada, adabiyotimizda o'zi, umri, odam va olam haqida teran falsafiy o'ylar suradigan millat vakillari qiyofasi yaratildi. Ulardagi sevgi va sadoqat tuyg'ulari ham o'ziga xos tarzda ifoda etilgan.

2.1. U.Hamdamning “Muvozanat” romanida mavzu va badiiy ifoda tarzi

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani uning ijodida muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” asari shu kungacha to‘rt marta qayta nashr etildi¹. Roman badiiyati, g‘oyasi, o‘tish davri qahramonlarining iztiroblari, taqdiri xususida katta-kichik olimlar, yosh tadqiqotchilar fikr-mulohazalarini bildirishdi. Hatto “Muvozanat” haqidagi talqinlar uzoq Amerika adabiy jarayonida ham aks sado berdi².

Ma’lumki, U.Hamdamovning «Yolg‘izlik» kitobidan so‘ng nashr etilgan “Muvozanat” romani juda katta shov-shuvli bahslarga sababchi bo‘ldi. Katta adabiyotshunoslarimizdan M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, S.Sodiq, D.Quronov va Yozuvchi P.Qodirov, J.Abdullaxonovlar romanga ijobiy baho berishdi. Shuningdek roman I.Yoqubov, Z.Pardaeva, Sh.Doniyorova, M.Pirnazarova kabi olim va tadqiqotchilarimizning ilmiy monografiya, dissertatsiya ishlari va kichik maqolalari doirasida tadqiq etildi. Shu bilan birga asar badiiy saviyasining kemtikligi, xususan, asar tilining nochorligi haqida M.Choriyeva, H.Karvonli kabi yosh yozuvchi ijodkorlar tomonidan tanqid etildi.

“Talabalar dunyosi” jurnalida yosh olim Z.Mirzaevaning “Muvozanat”ning Amerikadagi talqini»' maqolasi e’lon etildi³. Maqolaning ahamiyatli jihati shundaki, unda muallif Michigan universiteti tadqiqotchisi Reychel Xarelning “O‘tish davrida o‘zbek adabiy ovozlari. Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani voqeasi” maqolasi xususida xabar beradi. Muallif maqolada amerikalik o‘zbekshunos olimlarning o‘zbek adabiyoti bo‘yicha olib borgan tadqiqotlariga xos tekshirish metodi, xususan, R.Xarelning “Muvozanat” romani borasidagi

¹ Хамдам У. Мувозанат // Жаҳон адабиёти. 2002. №5-6; Хамдам У. Мувозанат. - Тошкент: Минҳож, 2004. - 200 бет; Хамдам У. Мувозанат. - Тошкент: Шарқ, 2007. -272 бет; Хамдам У. Мувозанат / Ватан ҳақидаги қўшиқ. Тошкент: Академнашр, 2014. – 4-278 бетлар.

² Бу ҳақда қаранг: Мирзаева З. “Мувозанат”нинг Америкадаги талқини // Талабалар дунёси. 2009. №10. – Б. 10-12.

³ Мирзаева З. «Мувозанат»нинг Америкадаги талқини» // Талабалар дунёси. 2009. №10.-Б. 10-12.

fikr-mulohazalarini tahlil chig'irig'idan o'tkazadi. Hatto tadqiqotchi o'zi bevosita roman tahliliga ham kirishib ketadi. Muhimi, mazkur maqola hozirgi o'zbek adabiyotida bahslarga sabab bo'lgan "Muvozanat"ning Amerikadagi talqini bo'lgani bois bugungi adabiyotshunoslarimizning uzoq bir qit'adagi muhim adabiy jarayondan voqif etadi.

"Muvozanat" romanida ellikka yaqin qahramonlar ishtirok etadi. Amerika yozuvchisi Artur Xeylining "Oqshom xabarleri" romanida bosh qahramon va ikkinchi darajali obrazlar degan qoliplar ko'zga tashlanmaydi. Qahramonlar o'zlarining ruhiy dunyosi, xatti-harakati, shaxsiy muammolari bilan baravar ravishda ishtirok etadi. Har birining ehtiyojlari atroflicha qalamga olinadi. Artur Xeyli bilan U.Hamdami romanlarida aynan shunday holat ko'zga tashlanadi¹.

Iqtisod fanida "ehtiyotlar cheksizligi" degan atama bor. Mundoq do'ppini boshdan olib, o'ylab ko'radigan bo'lsak, inson ehtiyoji shu darajada kengki, unga nafaqat moddiy, balki ma'naviy, ruhiy ehtiyojlari ham kiradi. Sevish va sevilish, do'stlashish yoki eng oddiy misol, suvga tashnalik ham bitta ehtiyoj sanaladi. Qaysiki, birining talabi qondirilmas ekan, o'sha jarayon insonning botini yoki zohirini inqirozga olib keladi. "Muvozanat" asaridagi Yusuf, Said, Mirazim, Zahro, Amir singari qahramonlar jamiyatda, o'z shaxsiy hayotida, botiniy va zohiriy olamida o'zi bilan o'zi kurashadi. Qaysidir biri idellashmagan sevgisi uchun, ba'zisi ma'naviy-ruhiy ehtiyoj uchun kurashadi. Yozuvchining o'zi ta'kidlaganidek, hayotda ma'lum bir vaznni saqlab qolishga qaratilgan inson ruhiyati muvozanatni saqlab qololmay, qarsillab sinadi. Hatto asarning eng iqtidorli, aqlli, hayotga, jamiyatga, atrofdagi insonlarga xolis nazar bilan qarovchi Yusufda ham xuddi shu holat yuz beradi.

"Muvozanat" talabalik yillarida bir-biriga yaqin bo'lib qolgan uch do'st (Yusuf, Said, Mirazim)ning sarguzashtlari haqida hikoya etadi, shunga ko'ra asar an'anaviy "Uchlik badiiy formula" asosiga qurilganini, qayd etish joiz. Zero, necha

¹ Мирзаева З. «Мувозанат»нинг Америкадаги талқини // Талабалар дунёси. 2009. №10.-Б. 10-12.

ming yillik folklor, zamonaviy o'zbek va jahon adabiyot namunalarida bu badiiy formula juda ko'p bora mahorat bilan istifoda etilib kelinadi. Shu o'rinda, "Uchlik badiiy formula"ga misol tariqasida o'zbek xalq ertaklaridagi uch aka-uka, uch opa-singil, uch do'st motivlarini eslash kifoya. Mashhur amerikalik adib Jek Londonning "Uch qalb" romani, zamonaviy o'zbek nasrining otasi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida qo'llanilgan "Otabek-Kumush-Zaynab", "Otabek-Kumush-Homid" badiiy shartli uchlik formulasini eslaylik. Xuddi shuningdek, P.Qodirovning "Uch ildiz" romani ham uch talaba yigit va qiz hayoti, mehnati, muhabbati haqida, ya'ni an'anaviy realistik uchlik badiiy formula asosiga qurilganini yaxshi bilamiz¹.

Ulug'bek Hamdam "Muvozanat" badiiy kompozitsiyasida o'zbek va jahon adabiy tajribalarida mavjud bo'lgan va juda ko'p bora sinalgan "uchlik badiiy formula"dan unumli foydalanadi. Asarda uch do'stning kechinmalari, hayoti, taqdiri yotgan bo'lsa-da, unda keng ma'noda o'zbek millatining sho'ro davri tuzumidan bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi butun murakkabliklari haqqoniy, shafqatsiz real tasvirlarda mahorat bilan ochib beriladi. Roman boshdan-oyoq, kontrast tasvirlar "shahar-qishloq", "ma'naviyat-iqtisodiyot", "ma'rifat-jaholat", "qashshoqlik-boylik", "kibru-havo-kamtarlik", "sof sevgi-majburiy sevgi", "namoz-benamoqlik", "zohidlik-jamiyatdagi faollik", "baxtiyorlik-baxtsizlik", "inson mehnatining qadrlanishi-qadsizlanishi", "halol-harom" singari qarama-qarshi, ikki qutbni tashkil etuvchi tasvirlar bilan boyitilgan. Roman sahifalari osha "Bolalik va Kattalik" tasvirlari (asarning bosh qahramoni Yusuf nigohi va hayoti misolida) o'rni-o'rni, vaqti-vaqti bilan almashinib boraveradi. Ammo bu taxlit badiiy kompozitsiya kitobxon uchun murakkablik tug'dirmaydi. Voqealar, qahramonlar hayoti, qismati, ruhiy holatlari, kayfiyatlari haqida tugal, izchil fikr, xulosa-hukm batafsil mantiqiy mulohaza uchun "Bolalik-Kattalik" badiiy kompozitsion qurilmasi mustahkam va pishiq poydevor bo'lgan. Asarda "Bolalik-Kattalik" formulasi muayyan badiiy zamon va makon doirasida purijina misoli

¹ Кўчқорова М. "Мувозанат"да бадий шартли рамзлар.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2015.№3.Б.-49-51.

harakatlanadi. Ya'ni, kattalik – Yusufning bugungi kuni, ahvoli-ruhiyasidan, shahar hayotidan hikoya etsa, bolalik – Yusufning kechagi kunidan, bolalik xotiralaridan, qishloq hayotidan hikoya etadi. Har ikki syujet chizig'i birlashib, Yusufning (tor ma'noda) qismatidan, keng ma'noda esa o'zbek ziyolisining kechagi va bugungi hayotidan, jamiyat va jamiyat fuqarosi hisoblangan shaxs tiynatidagi ruhiy-ijtimoiy muvozanat haqida bahs etadi. Muallif kitobga yozgan so'zboshisida e'tirof etganidek: "Tabiiyki, Yusuf ham bu kurashlarda qurbonlar berdi: do'stlaridan, ishidan, oilasidan, ko'zining oqu-qorasi – farzandidan judo bo'ldi. Lekin u o'zining asosiy e'tiqodiga xiyonat qilmadi, unga sodiq qoldi: u hayotida, atrofida nimalar yuz bergan va berishi mumkin bo'lgan bo'lmasin, baribir, insonni tutib turgan oliy qadriyat – Muvozanatdan, unga ergashish mashaqqatidan yuz o'g'irmaydi. Ammo bu shunchaki muvozanat emas edi. Ushbu muvozanatning bir ildizi insonning o'zidan boshlansa, ikkinchisi muhaqqaq ravishda u yashayotgan jamiyatning bag'ridan suv ichadi"¹. Yozuvchi ta'kidlab ko'rsatganidek, romanda insonning ham ruhiy-ijtimoiy muvozanatidan, uni tuta bilgan va tuta bilmagan o'tish davri odamlari haqida badiiy yozg'iradi.

Asarda 90-yillardan keyingi o'zbek millatining chekka-chekka qishloqlaridagi, shuningdek, tig'iz va sershovqin shahar hayoti, bu ikki xil olamda kechayotgan insonning iztiroblari, dard-u alami qalamga olinadi. Ayniqsa, nochorlik, qo'li kaltalik, insonni naqadar mayib-majruh, zabunsiz qilib qo'yishi yorqin va jonli lavhalarda ishonarli hikoya qilingan. Asarda ikkita qahramonning ruhiy fojeasi, shu fojiaga eltgan sabablar, voqealar tizimining drammatizmi yuqori pafos bilan ifodalangan. Birinchisi, Yusufning hayoti, ayniqsa, o'g'lining o'limi kitobxonni larzaga soladi. Ikkinchisi, Amirning hayoti. Uning rafiqasi Gulshodaning o'limi oldidan o'g'liga qilgan nasihatlarini nihoyatda ta'sirli chiqqan. Hayotning beshafqat ko'chalarida yurakda nafrat va shafqatsizlik, sovuqqonlik urug'larining unib-o'sishi "Muvozanat" romanining qahramonlari ruhiyati tadqiqi misolida yana bir bor

¹ Хамдам У. Мувозанат / Ватан ҳақидаги қўшиқ. Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 4-5.

tahlildan o'tadi. Muallif asarda biz eng oliy tuyg'ular deb inongan, gohida unga sajdalar qilgan, eng yuksak Muhabbat, Do'stlik, Birgalik kabi tuyg'ular ham naqadar omonat ekanligi fosh etiladi. Xususan, bu Yusuf, Mirazim, Saidning o'zaro do'stona munosabatlarida isbotlanadi. Asarda xatto do'stlik ham vaqt o'tishi bilan o'z samimiyatini yo'qotadi, degan falsafa ilgari suriladi. Chunonchi, asar qahramoni Yusuf o'z do'stlariga ishongan edi. Ammo do'stlari unga vafo qilishmaydi. Rafiqasi bilan ne umidlarda bir yostiqqa bosh qo'ygan edi, lekin maqsadlar, intilishlar, ehtiyojlar boshqa-boshqa bo'lgani uchun ular ajralishadi. Natijada Yusuf ikkinchi bor muvozanatini yo'qotadi. U o'zining fanini, kasbini sevar edi. Biroq zamona zayli, moddiy qiyinchiliklar tufayli o'z ishini tashlab, firmaga ishga kiradi. Biroq asar oxirida yana auditoriyaga qaytadi. Uning maqsadi, ota- onasi, akasiga yordam berish edi. Akasi Amirning zamonga moslashishiga ko'maklashmoq istaydi. Lekin bu uning qo'lidan kelmaydi. Yusuf tirishib-tirmashib o'z muvozanatini saqlashga harakat qiladi. Ammo akasi Amir jamiyat bilan hamnafas yashay olmaydi. Yusuf favqulodda saqlab turgan muvozanat asar oxirida sinadi: "Yusufning ichida nimadir qarsillab sindi", - deydi. Demak, Yusufning ichida qarsillab singan narsa ramziy ma'noda inson botinidagi, uni hayotda tutib turgan irodasi, muvozanati edi.

Yozuvchi zamonaviy o'zbek obrazini ideallashtirishga harakat qilgan. Uning Mirazim, Said singari "qo'li uzun" qahramonlari Amerika, Fransiya davlatlariga sayohat qiladilar. Ayniqsa, fransiyalik Matilda bilan bog'liq voqealar zo'rma-zo'raki kiritilganligi sezilib qolgan. Shu o'rinda Yozuvchi zamonaviy o'zbekning imkoniyatlarini ko'rsatishga harakat qilgan.

Asarda oilaviy fojialar ko'zga tashlanadi. Yusuf bilan Oygul, Mirazim bilan Zahro, Said bilan Manzura, Amir bilan Gulshodalarining, epizodik obrazlar Ergash bilan Latofatlarning oilaviy, shaxsiy fojealari ko'rsatiladi. O'ylab ko'rilsa, ularning har biri o'zicha baxtsiz. Er-xotin o'rtasidagi munosabatlar ich-ichidan yemirilib ketgan. Oila – jamiyatning muhim bo'lagi. U baxtsiz, sarson-sargardon ekan, azob-u uqubatlari adoqsiz ekan, bunga kim aybdor

degan haqli savol tug'iladi. To'g'ri, odatda, sabablar va oqibatlar mavjud jamiyatdan izlanadi. Bu mantiqan to'g'ri ham. Asarda mustabid tuzumning ayanchli oqibatlari qurboni bo'lgan oilalar fojiasi ko'rsatiladi.

Yusufning orzu, intilishlari bilan tog' ramziy mohiyat kasb etadi. Chunki, uning ko'zlari doimo Ulug'tog'g'a qadalgan. Asarda fojiaiy taqdirlardan tashqari tabiat tasvirlari ham qahramonlar ruhiyatiga mutanosib ravishda aks ettirilgan¹.

Romandagi barcha voqealarni harakatga keltiruvchi obrazning Yusuf deb atalishi ham bejiz emas, albatta. Chunki Sharq adabiyotida Yoqubning husnda va aql-u kamolotda etuk ettinchi o'g'li Yusuf. Adib bu qadim an'anani nazarda tutgan holda o'z qahramoniga Yusuf deb nom beradi.

Badiiy makon nuqtai nazaridan voqealar shahar (Toshkent) va qishloq (Andijon – Marhamat rayoni) sharoitida tasvirlanadi. Xususan, Andijon milliy koloroti, andijonliklar tabiatiga xos so'zamollik, qoni qaynoqlik, qaysarlik, mehnatkashlik, sabrlilik; ommaviy kulgi sahnalari, latifago'ylik manzaralari; Ulug'tog', qalin qor yoqqan kun, lola sayli kabi peyzaj tasvirlari hissiy yoziladi. Boisi adib his etgan, ko'nglidan, boshidan kechirgan tuyg'ular va voqealar haqida, o'zi tug'ilib-o'sgan oilaviy muhit, qarindosh-urug'lari, qishloqdoshlari haqida yozadi. Shu jihatdan qaralganda, Ulug'bek Hamdam ijodidagi ilk roman "Muvozanat"da avtobiografizm elementlari keng va atroflicha aks etganini qayd etish joiz. Har holda ilk roman yozish tajribasida avtobiografizmning o'rni haqida mashhur adiblarimiz, adabiyotshunoslarimiz juda ko'p dono gaplarni aytishgan. Aytishlaricha, avtobiografizmdan keng foydlanilgani uchun ham ilk asarning badiiy cho'g'i o'chmas bo'lishi, yosh ijodkordagi biografik material tugab qolgach esa, keyingi yozilgan asarlar "bo'sh" bo'lib chiqishi ham chin haqiqat. Ulug'bek Hamdam ijodida "Muvozanat" romani, keyingi yillarda yaratilgan "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar", "Na'matak" romanlaridan ayni shu jihati bilan farq etadi. "Muvozanat"ning mustahkam badiiy poydevori yozuvchining shaxsiy tarjimai

¹ Кўчкорова М. "Мувозанат"да бадий шартли рамзлар.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2015.№3.Б.-49-51.

holi, boshdan kechirilgan shahar hayotidagi qiyinchiliklar, sarguzashtlarning realligi bilan bog‘liq. Roman qahramonlari: Odil aka va Halima aya, ularning besh o‘g‘li (Amir, Yusuf, Obid, Olim, Elbek), Yusufning tog‘asi Muhammadjon aka, Yusufning akasi Amir, uning turmush o‘rtog‘i Gulshoda, Yusufning rafiqasi Oygul, ularning olamdan bevaqt ketgan chaqalog‘i (Muhammadjon), fransuz magazini singari obrazlar va joylar Yozuvchining o‘zi va u tug‘ilib o‘sgan oila: ota-ona, aka-ukalar, qarindoshlari bevosita aloqador.

Bizningcha, bir oila a‘zolarining Amir, Yusuf, Obid, Olim, Elbek deb atalishida badiiy-mantiqiy-ramziy ma’nolar kuzatiladi. “Amir” Ollohning amrini faqatgina toat-ibodatda, ro‘za tutish, ehson qilish, chillada o‘tirishda, xullas islom dinining qonun-qoidalariga qat’iy rioya etishda deb biladi. U jamiyat va oilasidan uziladi. Shu yo‘lda halok bo‘ladi. Demakki, Amir ruhiy-ijtimoiy muvozanatni to‘g‘ri ushlay bilmadi. Azaldan Sharq folklori va mumtoz adabiyotida mavjud bo‘lgan diniy-mifologik obraz Yusuf – Ollohning nazari tushgan ham zohiran, ham ruhan go‘zal yigit. “Muvozanat” asarining bosh qahramoni “Yusuf” deb atalishida ana shu ming yillik milliy, diniy-mifologik, mumtoz an‘analarning yuksak badiiy-estetik idealini ko‘ramiz. Inson hayoti mehnat va ilmni o‘rganish bilan toat-ibodatda kechadi. Shu ma’noda, uchinchi o‘g‘ilning “Obid” deb atalishidagi tagma’no anglashiladi. Romanda olim va ilm ahlining hayoti asos markazda turadi. Shu bois oiladagi to‘rtinchi o‘g‘ilning ismi Olim deb atalishi ham tasodif emas. Xuddi shuningdek, o‘zbek eli, xalqi haqida keng planda ijtimoiy-falsafiy roman yaratish mohitiatiga ko‘ra kenja o‘g‘ilning “Elbek” deb atalishida yana bir tagma’no kuzatiladi.

Roman Yusufning bolalik davri voqealari: ota-bola suhbatlari bilan boshlanadi. Suhbatda asosiy mavzu ham bevosita “Olam muvozanati” bilan bog‘lanadi. Asarda “Muvonazat” so‘zining badiiy-falsafiy ma’no qatlamlari; “Olam muvozanati” (Olloh–yer sayyorasi–inson); “jamiyat va shaxs muvozanati”, “Ruhiy-ijtimoiy muvozanat”, “Ma’naviy-moddiy muvozanat”, “do‘stlik muvozanati”, “oilal muvozanati”, “qon-qarindoshlik muvozanati”, “muhabbat muvozanati” kabi katta-

kichik mavzular doirasida parodaksal mulohazalar fonida kechadi. Bu roman janrini “paradokslardan iborat falsafiy badiiy nasr” deb ta’riflash mumkin. “Muvozanat” romani ham xilma-xil paradokslarga boy. Bundan tashqari, asar sahifalari osha hayotiy tasvirlar, ruhiy holatlarga ishora beruvchi ramziy, timsolli-shartli badiiy tasvirlarga keng o‘rin ajratilgan¹. Masalan: qor bilan qoplangan yo‘llarga ilk bor iz tashlab so‘qmoq yo‘l ochgan bola Yusuf – kelajakda yangi yo‘llar, yangi izlanishlar qilishga qodir insonning ramziy obrazi. Bahaybat avtobus – vakuum holatiga tushib qolgan ijtimoiy tuzum, avtobus tilimlab tashlagan yo‘l, jamiyatning insonga yetkazgan zulmi va zug‘umlari ramzi. Avtobus - multfilmlardagi temirtan maxluq singari bola Yusuf qalbini larzaga soladi.

Muhammadjon aka – obrazining ham real asosi bor. Bu Yozuvchining so‘zamol, gapga usta notiq tog‘asi. Romanda aks ettirilgan Muhammadjon aka obrazi ilm-fanning qadrini chuqur anglagan; ammo jamiyatda “begona” odamga aylanib qolgan odam obrazi. U yolg‘iz yashaydi. Uning sevgan mashg‘uloti – qushlariga mehribonlik qilish. Muhammadjon akaning qushlar bilan bog‘lanib qolishi muallif bayonida shunday beriladi: “Aylanib-aylanib axiyri zo‘rg‘a rayondagi “qushlar maktabi”ga ishga kirdi. Har tugul, qamalgan odam mafkuraviy ta’sir o‘tkaza olmaydigan qushlar bor ekan...”². U odamlar orasidan topmagan mehr va g‘amxo‘rlikni qushlardan topadi. Uning do‘stlari – odamlar emas, qushlar bo‘ladi. Muhammadjon aka – davri o‘tgan odam obrazi hamdir. U o‘zining yolg‘on asosga qurilgan hayotini tushunib yetadi. Shuning uchun ko‘zi ochiq ketadi. Qushlarning qafasdan chiqarib yuborilishi, ramziy ma’noda inson erkiga timsolli ishoralar beradi. Muhammadjon aka o‘zi sevgan qushlarini ozodlikka qo‘yib yuborar ekan: “Bu yerda bog‘lar ham qolmadi, tog‘lar ham. Hammasini yakson qilib, bag‘rini tilib, paxtazorga aylantirishdi bular!.. Bor, qushim, uch, endi, uch! Lekin, bilib qo‘y, oson bo‘lmaydi. Oson bo‘lmaydi-yu, baribir ozodlikka nima

¹ Кўчқорова М. “Мувозанат”да бадий шартли рамзлар.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2015.№3.Б.-49-51.

² Хамдам У. Мувозанат / Ватан ҳақидаги қўшиқ. Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 13.

yetsin? Bor, bora qol, erkin havalarda uch endi, uch, uch, uch!..”¹. Qahramonning mazkur monologida chuqur ijtimoiy umuminsoniy, ayni paytda milliy dard bor. Qushlarning ozodlikka qo‘yilishi, ramziy ma’noda o‘zbek xalqining sovet mafkurasi tushovlaridan qutilishidir. Paxta plantatsiyasiga aylantirilgan mamlakat, bog‘i ham, tog‘i ham vayron etilgan yurt, bu – O‘zbekiston edi. Muhammadjon aka Yusufning umr yo‘lini, e’tiqod-a’molini qat’iy belgilab olishga yordam bergan, o‘z shaxsiy yo‘lini topishga shamchiroq bo‘lgan odam obrazidir.

Yusufning bolaligidan xayollarini o‘g‘irlagan afsonaviy tog‘ – Ulug‘tog‘ ham ramziy simvolik obraz. Ulug‘tog‘ – o‘z nomi bilan millatning yuksak orzulari, ideallari, milliy mustaqillik kabi ijtimoiy ramzlar ifodasi. Yusufning ko‘zlari qadalgan Ulug‘tog‘ – uning optimal kayfiyati ramzi.

Qiyshayib qolgan, tirkak bilan tutib turilgan eski devorning qulashi – eski dunyoqarashning (sho‘ro mafkurasining) kuni bitganiga ramziy ishoralar beradi. Ikkinchi yana bir tagma’no, eski devorning qulab tushishi qizil imperiyaning umri tugaganiga ramziy ishora qiladi. Sodiq – Yusufning bolalikdagi sinfdosh do‘sti. U qaysi tuzum, qaysi kunning a’lo ekanligini tushuna olmay garang yurgan arosatdagi odam obrazidir. U “Mustaqil jamiyat afzal” demoqchi bo‘lsa, qashshoqlik, moddiy qiyinchilik uning suyak-suyagidan o‘tib ketgan. Shuning uchun har holda bir navi bo‘lsa-da, kuni bir maromda kechib turgan kechagi kunni (Sho‘ro davri) “yaxshiroq edi”, degan xayollarga boradi. Fikrlarini oydinlashtirib olmoq uchun Yusufni so‘roqqa tutadi. Yusuf esa fikrda yakdil, u chin dildan millat mustaqilligini, milliy ozodlikni o‘zining shaxsiy oilaviy baxtidan, xotirjamligidan ham ustun qo‘yadi. Shu ma’noda Yusuf obrazi – millatparvar, vatanparvar, ko‘tarinki ruhiyatga ega optimist inson.

Romanda eng tragik, ta’sirchan obraz – Amir. U mutasavvuf odam obrazi bo‘lib, ehtimolki, u XXI asr kishisini do‘zax azobi va qiyomatdan ogoh etadi. U bugungi kun kishisining naqadar ma’naviy-ruhiy najotga muhtoj ekanini chuqur

¹ Хамдам У. Мувозанат / Ватан ҳақидаги қўшиқ. Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 28.

anglaydi. Anglagani, bilgani uchun ham jamiyat bilan kelisha olmaydi. Romanda Amirning hayoti fojeaviy yakun (qahramon aqldan ozadi) topgan bo'lsa-da, bu obraz yelkasiga katta badiiy-estetik yuk orilgan. Amir ruhi va tani sog' bo'lishiga qaramasdan, jinnixonaga tashlanadi. Bu sahna menga beixtiyor E.A'zamning "Navoiyni o'qigan bolalar" hikoyasi qahramoni Janob Janob tushib qolgan vaziyatni eslatdi. Amir sog'lom bo'la turib, o'zini jinnilikka solishga majbur bo'ladi. Jinnilar qo'lida pati yulib tashlangan musicha holatida ramziy ma'noda u o'zini ko'radi. Yozuvchi jinnixonadagi bemorlar aslida, davlat va jamiyatni aldab, ko'zbo'yamachilik qilib, shu erda yotib, o'zlarining jinoyatlarini yengillatish uchun yotganlarni ham tanqid ostiga oladi. Umuman, romanda jiddiy ijtimoiy muammolar: aldov, ko'zbo'yamachilik, qashshoqlik, inson va inson mehnatining qadrsizlanishi, ayniqsa ziyoli ahlining jamiyatda qadrsizlanishi kabilar ko'rsatib berilgan.

Amir obrazining prototipi Yozuvchining akasi – Oybek Hamdamovdir. Zero, adib asarda Oybek Hamdamovning qalandarona va tasavvufona ruhda yozilgan uch she'ridan foydalangan¹. Roman qahramoni Amir hayotda o'z sevgisiga erisha olmagan. Qolaversa, jismoniy va ruhiy-aqliy kuchini to'g'ri yo'naltira olmagan shaxsdir. Amir obraziga tegishli syujetni Yozuvchi akasi Oybek Hamdamovning hayotidan oladi. Ammo hayotiy haqiqat bilan badiiy haqiqat o'rtasida farqlar bor, albatta. Adib real voqelikni badiiy haqiqatga aylantirish jarayonida anchagina o'zgartirishlar, to'qimalar qiladi. Ya'ni Oybek Hamdamovning kasalmand ayoli hayotda o'z joniga qasd qilmaydi. Biroq adib asarda Gulshodani o'limga mahkum etadi. Ammo hayotda ularning qismati boshqacharoq kechgan. Hayotda Amirning prototipi Oybek Hamdamov–o'z hayotiga qasd qiladi. Yozuvchi hayotiy voqealarni biroz o'zgartirib, badiiy haqiqat o'laroq kitobxonga taqdim etadi.

Asarda Amirni nohaq jazolagan cho'pon ota uning qarg'ishiga uchraydi. Uning navqiron ikki o'g'li Amir qarg'aganidek, "ikki ko'zi suvga to'lib" selda

¹ Хамдам У. Мувозанат / Ватан ҳақидаги қўшиқ. Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 186; Яна қаранг: Ўша асар. -Б. 191-192; Ўша асар. – Б. 230.

oqib ketadi. Bu badiiy yechim ming yillik xalqona inonch-e'tiqod "qarg'ish olish" bilan bevosita bog'liq. Romandagi epizodik obrazlardan biri – Ergash aka. Aslida u ziyoli shaxs bo'lgan, ammo moddiy qiyinchiliklar, oiladagi notinchlik sabab ichkilikka berilib, xarob ahvolga kelgan. U.Hamdami roman ichida Yusuf kabi ziyolilar qismatini keng planda ochish maqsadida Ergash aka qismatini ham qistirma epizodik voqea sifatida asarga olib kiradi. Yusuf ziyoli qatlamidan bo'lgan Ergash hayotini kuzata turib, ana shunday abgor ahvolga tushib qolmaslik uchun ham aqlini ishga soladi, ruhiy-ijtimoiy ahvolini birdek ushlab turishga harakat qiladi. "Ergash aka qismati" romanda "hikoya ichida hikoya qilish" badiiy vositasi o'laroq zohir bo'lgan.

Asarda ommaviy kulgi sahnalari vodiylilik kishilarga xos latifago'ylik, askiyabozlik singari xalq badiiy san'ati orqali ochib beriladi. Binobarin, bu "Abdurahmon aka va Abdug'afur buva haqidagi" xalq hangomalarini illyustratsiya qilish orqali ommaviy kulgi hosil qilinishida ko'rinadi. Xalq latifalariga xos yumor va satira elementlari bilyardxonadagi qishloqdoshlar Rashid, Erkin aka (bilyardxona egasi), Esonali vag'vag' xatti-harakatlari, gap-so'zlarida yanada yorqin ifodalanadi. Qahramon ismiga "vag'vag'" laqabining tirkalishi esa qahramonni yanada xalqchil qilgan.

Roman qahramonlarining qay biri ma'naviy ehtiyojga (Zahro) tashna bo'lsa, yana boshqasi moddiy ehtiyojga muhtoj (Yusuf va uning qishloqdoshlari). Asarda har ikki holat ham insonning ulkan fojiasi sifatida badiiy talqin etiladi. O'zbekning yangi "Mirzakarimboylari" topgan davlatini qayerga va qanday sarflashini bilolmayotganlari Yozuvchining ziyrak nigohi bilan yengilgina kinoya qilinadi. Xususan, bu Mirazimning fransuz aktrisasini qanchadan-qancha pullar sarflab Toshkentga olib kelish lavhalari bilan bog'liq. Ammo sohibjamol fransuz Matilda Sorel ham tantiboyvachchaning ikki kun o'tar-o'tmas badiga uradi. Yozuvchi ayyorona, bilinar-bilinmas kinoya va istehzo bilan o'zbekning qo'li uzun yangi "boylari"ni mana shu tarzda peshanasiga chertib qo'yadi. Uch do'st – Yusuf, Said, Mirazim roman finishida uch xil holatda qoladi. Yusuf – oilasi, ishi, qon-

qarindoshlari, eng muhimi ruhoniyyatida anchagina yo‘qotishlar qilgan esa-da, yana qayta kurashga chog‘lanadi. Said esa bor-budidan ayrilib, ayyor xotini Manzuraning izmida qoladi. Endi uning ixtiyori o‘zida emas, o‘zganing qo‘lida. Mirazim ham sahroga tashlangandek, yolg‘izlik girdobiga otiladi. Uch do‘stning uch xil qismati, uch xil dunyoqarashi haqida zamonaviy mavzuda roman yaratilgan.

Romanda tizimli ravishda ramziy timsollarga ishoralar kuzatiladi. Xususan, soyada qolgan tok tanasining qayrilishi, bu jarayonda tokning qarsillab yorilishi manzarasi ham matndagi yashirin ma’nolardan so‘zlaydi. Mustamlaka sharotidagi vatanning ozodlikka chiqishi, uning mustaqil odimi, yashab keta olish yoki yashab keta olmasligi haqida gap-so‘zlar soyada qolgan tok – dunyoga tanilmay qolayotgan O‘zbekiston va O‘zbeklar, tanasi qayrilishida qarsillab yorilishi – qiyinchiliklar mashaqqati, tokning quyoshga qaratib qo‘yilishi – O‘zbekning dunyoga chiqishi haqidagi ramzlardan hikoyat etadi. Tosh – ramzi qahramon ruhiyatida alamzadalik, odamlarga nisbatan kuchli nafrat ramzi o‘laroq namoyon bo‘ladi.

“Muvozanat” jami bir yuz o‘n qismdan iborat bo‘lib, unda oltmishga yaqin faol va nafaol bo‘lgan qahramonlar ishtirok etadi. Roman uslubida ko‘proq ijtimoiy-falsafiy mazmun yetakchilik qilsa-da, voqealar maishiy fonda olib boriladi. Adib ba’zi o‘rinlarda ko‘pso‘zlilikka beriladi. Jumladan, romandagi sakson yetti, to‘qson to‘rtinchi qismlar tushirilib qoldirilganida ham matnga hech qanday putur yetmaydi. Ba’zan roman tilida siyosiy-publitsistik ruh kuchayib ketadi. Vaholanki, badiiy asar badiiyligicha qolishi kerak. Ammo asarning mazmun nuqtayi nazaridan ijtimoiy-falsafiy roman turi ekanligini hisobga olsak, bunday yo‘l o‘zini oqlaydi.

Roman yechimi qahramonning “Turishi kerak edi! Turishi kerak... Tur...” degan ichki da’vati bilan yakunlanar ekan, Yusufning irodali shaxsligidan, kurashuvchanligidan, yengilmasligidan dalolat beradi. Romanda qahramon ruhiyatiga xos ichki rag‘batlantiruvchi kuch kitobxonni qoniqtiradi. Beixtiyor

kitobxon ruhiyatida ham qahramon hayotida va atrofida nimalar yuz bergan bo'lmasin, uni turishga, yana kurashib yashashga da'vat kayfiyati, chaqirig'i paydo bo'ladi. Amirning qish kunida yalangoyoq, ich kiyimda xoxolab kulib, avtobusni tepishi esa "o'tish davri qurboni"ning adolatsiz ijtimoiy tuzumga isyoni kabi taassurot uyg'otadi. Garchi bu tentak odamning achinarli qiligi bo'lsa ham. Asarda tig'iz drammatizm, tragizm bilan birga xalqona yumor (askiya, latifa janri elementlari) omuxta ifodalangan. Iztirob oldida kulgi, dard yonida quvonch, baxtsizlik qarshisida ulkan masrurlik kabi qarshilantirish tasvirlari beixtiyor xalq og'zaki ijodiga xos hayotbaxsh tasvirlarni yodga soladi.

Yozuvchining badiiy-estetik ideali kitobxonni to'lqinlantiradi. Adibning har bir o'zbekni to'kin, baxtli mehnat va oila qo'ynida ko'rish istagi romanning ilk sahifasidan so'nggi nuqtasigacha aks etgan. Mana shu ezgu istak romanning butun badiiyatini, Yozuvchi dunyoqarashini o'zida to'la ma'noda aks ettirgan.

Xulosa shuki, Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani nafaqat adib ijodida, qolaversa, o'tish davri o'zbek adabiyotining eng sara durdonalaridan biri bo'lib qoladi. Chunki, adib bu davr mashaqqatlarini bir roman doirasida turli rakurslarda turib, mahorat bilan (xususan, psixologik ramzlar, ramziy ishorali detallar vositasida) aks ettirgan.

2.2. “Muvozanat” romanining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari

San’at asari markazida hamisha badiiyat turadi. Mazmun-shakl mohiyati san’at va adabiyotda badiiyat ehtiyojidan kelib chiqadi. Emotsional bo‘yoqdorlik estetik munosabat orqali namoyon bo‘ladi. Tasvir va ma’nodagi ko‘chish voqelikka ijodiy yondashuv samarasidir. Binobarin, badiiy mushohada asosini muallif nuqtai nazari va munosabat xarakteri belgilaydi. Demak, hissiy ehtiyojdan ibtido olgan estetik idrok voqelikning yangilanib, yanada boyishidir. Bu estetik idrok muayyan tartibot va bog‘lanishda yuzaga chiqadi.

U.Hamdamning romani uchun tanlangan mavzu, uslub va mazmun munosabatlari “tahlil” zalvorini oshirish, talqin ta’sirini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Roman qahramoni Yusuf shaxsiyatidagi falsafiy-ijtimoiy mohiyatni namoyon etishda asardagi badiiy komponentlar munosabati muhim o‘rin tutadi. Adib uning ruhiy-ijtimoiy maqsadlarini ochishda dramatizmni keskinlashtirish yo‘lidan boradi. Epik maydon kengayishi asar strukturasini murakkablashtiradi. Epik qatlam syujet qismlaridagi shartlilikni teranlashtirib, tasvirdagi yaxlitlashuvni yuzaga keltiradi. Tasvir o‘zida talqinni ham jo etgan holda ijtimoiy-psixologik manzaralar ichiga olib kiradi.

Bu asar kompozitsiyasidagi o‘ziga xoslikni yetarlicha anglamagan kitobxon uchungina shunday tuyulishi mumkin. Asardagi ijtimoiy-falsafiy talqin usulining qurilish jihatida shundaki, ruhiy kechinma tasviri bot-bot uzilib tursa-da, badiiy komponentlar qatlamining ishga tushishi natijasida ular yana mantiqan tiklana boradi. Bu hol davr voqeligi va qahramon psixologiyasi to‘qnashuviga yo‘l ochib, kitobxon tasavvurlarini kengaytiradi. Rivoya qahramon ruhiy olamiga olib kirishdan tashqari ijtimoiy mohiyat “pardalarini” ko‘taradi. Tasvirda ruhoniyyat butunligida ko‘rinayotgan keskin evrilishlar (ma’naviy tanazzul sabablari, e’tiqoddagi “sinish”lar, milliy o‘zlikni anglash, shaxs kamoloti, inson irodasiga ishonch, milliy ma’naviyat ifodasiga e’tiqod) kompozitsiyaga aloqador komponentlarni umumlashmalar sari yo‘naltiradi. SHu tarzda, asardagi falsafiy-

publitsistik ko‘lam jamiyat, odam, tabiat uchligida birlashib, romanning kompozitsion yaxlitligini yuzaga chiqaradi.

Anglashiladiki, roman kompozitsiyasi komponentlarni uyushtirib, tasvir predmeti va ifoda usullarini shakllantiruvchi estetik markaz muallifning badiiy tafakkuridir. Binobarin, mavzu, shakl va uslub nisbati uyushib, kompozitsion yaxlitlik ta‘minlanishi estetik idrokka bog‘liqdir. Bunda badiiy tafakkurning makon va zamon sarhadlarini kengaytirishdagi o‘rnini, shakl strukturasining mazmun va g‘oya atributlariga ta‘sirining ifoda yo‘sini tarkibida tasvir-talqin-tahlil-tadqiq xususiyatlari uyg‘unlashuvida kompozitsiyaning rolini ochishga diqqat qaratildi. Badiiy yaxlitlikni yuzaga chiqaruvchi struktural modifikatsiya badiiy an‘ana va yangicha ijodiy izlanishlar mushtarakligida izohlandi. Bu roman strukturasini majoziy-falsafiy talqin belgilashi aniqlandi¹.

U.Hamdamning “Muvozanat” romanida jamiyat ruhi va asar yaratilgan davr muammolari kompozitsion jihatdan Yusuf shaxsiyatida markazlashtiriladi. Yozuvchi davr o‘zgarishlarini dunyoqarashdan hayotiy ziddiyatlarga, ijtimoiy muammolardan ruhiy evrilishlarga qarata siljitar ekan, ularni asosan yagona nuqta – inson qalbida fokuslashtiradi. Yusuf bamisoli personajlararo badiiy katalizator. U muallifning g‘oyaviy-estetik niyatini yaxlitlashtirib, kompozitsiya komponentlarini bir-biriga ulovchi universal obrazdir. Ushbu romandagi Mirazim Said, Amir kabi obrazlar mohiyati, ularning roman kompozitsion yaxlitligini ta‘minlashdagi roli tahlil etildi. O‘rni bilan Amir obraziga munosabat bildirgan U.Normatov, D.Quronov, S.Sodiq, J.Eshonqul, I.YOqubov kabi olimlar bilan bahs-munozaraga kirishildi.

Roman qahramonlari Yusuf, Amir ruhiyatidagi iztirobli holatlarni dastlab murosaviy yo‘sinda hal etishga kirishadi. Muallif qahramonlardagi kechinma-iztiroblarga hamdardlik pozitsiyasida turganligi ko‘rinadi. Lekin qahramon tasviri ham, hissiyotlar tahlili ham shunchaki bir chekkadan bayonni emas, muayyan tizim

^{1 1} Қўчқорова М. “Мувозанат”да бадий шартли рамзлар.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2015.№3.Б.-49-51.

va tartibdagi qurilishni talab etadi. Ayniqsa romandek epik janrda badiiy yaxlitlik va kompozitsiya tushunchalari bir qarashda vazifa nuqtai nazaridan o'zaro tengdek. Lekin, aslida, unday emas. Badiiy asar kompozitsiyasi shakl hosil qiluvchi unsur bo'lish bilan bir qatorda, yozuvchi niyatini ro'yobga chiqarish, barcha qism va vositalarni garmonik uyushtiruvchi struktura, mazmunning namoyon bo'lish shakli hamda yashash tarzidir. Demak, romaniy tafakkur tizimida o'ziga mos badiiy mushohada yaxlitligini taqozo etadi. Badiiy kompozitsiya Yozuvchi konsepsiyasining namoyon bo'lish tarzini markazlashtiradi. Bunday belgi-xususiyatlariga ko'ra istiqlol davri romanchiligi XX asr o'zbek romanchiligi poetikasi tarixida o'ziga xos o'rin tutadi.

Real voqealik inson fikri va ko'ngliga uzluksiz ta'sir etadi. Shu bois inson aniq ruhiy holat va vaziyatlarda o'zgarib turadi. Inson ruhiyatida shakllangan ta'sir tizimi qahramon psixologiyasini anglash, xarakter ichki olamidagi ma'naviy jihatlar omilini aniqlashga imkon beradi. Badiiy xarakter turfa ruhiy holat-kechinmalar tasviridagi nisbatga asoslangani bois qahramon ruhiy-psixologik tadrijini belgilash va mantiqiy asoslash qahramon obrazini yaratishning muhim mezoni sanaladi.

Roman qahramon tasvirida zamon va makon kengligi, ulardagi almashinuv jarayonlaridan tashqari ruhiy-falsafiy tahlil chuqurligini ham talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida, kompozitsiyaning o'ziga xos qurilishsiz, kompozitsion yaxlitliksiz amalga oshuvi mumkin emas. Kompozitsiyadagi muvaffaqiyat bu masalada asarga dadil yangiliklarni olib kirish qatorida, o'zbek va jahon nasri an'analari o'zlashtirilishi bilan ham bog'liqdir. U.Hamdam xarakter yaratishda ijtimoiy-ruhiy-ma'naviy mohiyatga diqqat qaratadi. O'sha uchlikning milliy an'analardan oziqlanishi ijodiy yaxlitlikni ta'minlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, shakliy mundarijadagi o'ziga xoslik kompozitsion yaxlitlikka putur etkazmaydi, aksincha, turli badiiy komponentlar ishtirokida ana shu yaxlitlikning jonli harakatiga yo'l ochadi. Yozuvchi dastavval Yusufni tevarak-atrofidagilarga shunchaki baho berish fonida ochsa, keyinchalik uni o'z ruhiy dunyosiga munosabat fonida ham ocha

boradi. Binobarin, qahramon qalbida o'ziga xos "ruhiy portlash" sodir bo'ladi. Bu esa qahramonga o'zining asl mohiyatini idrok etish imkonini beradi. Qahramonning o'z ruhiyat dunyosi bilan to'qnashuvi esa o'ziga xos kompozitsion qurilish vositasida amalga oshiriladi. Demak, bunday holatlarda kompozitsiya asar shakli va mazmunigagina emas, uning g'oyasiga ham ta'sir o'tkazadi.

Asardagi yozuvchi tomonidan tanlangan epizodik lavhalar, tafsilot va shtrixlardagi mazmun va g'oya qahramonlar fitrati va harakatida jonlanib, muayyan estetik qiymat kasb etadi. Romanda tasvirlangan hodisalarning bir necha o'lchamda harakatlanishini ta'minlashda asarga tanlangan badiiy komponentlarning o'zaro munosabatda joylashtirilishi kompozitsiyada muhim rol o'ynaydi. Chunki yozuvchining asar zaminiga yashirgan asosiy maqsadlaridan biri – jamiyatdagi norasolliklar, inson ruhiyatidagi nobopliklar ustidan kulib, xulosa chiqarishdir. Adib qahramon tarixi va jamiyat umumiy manzaralarini muayyan tizimga jipslashtira oladi. Natijada, qahramon ruhiyati, xususiyati, umuman davr mohiyati bilan tutashib ketadi. Demak, romanda zohiran uzuq-yuluqday ko'ringan sertarmoqlilik, aslida, ijtimoiy hayot tasviri bilan bog'liq yagona g'oyaning shoxobchalaridir. Bu uzviylikni, badiiy yaxlitlikni ta'minlagan etakchi badiiy komponent esa kompozitsiyadir. Anglashiladiki, mazmun maydoni va shakl tadriji kompozitsiyada integrallashadi. Chunki ijodiy mohiyat belgidan timsolga, obrazdan ma'noga o'tib, barcha komponentlarni butunlik sari yo'naltiradi.

U.Hamdami uslubi roman kompozitsiyasining ijtimoiy-badiiy asoslarini o'rganish yo'nalishida tadqiq etildi. Roman kompozitsiyasining badiiy yaxlitlikda tutgan o'rni turli rakurslarda: tizim shaklida, material joylashishi va qurilishi jihatidan, shuningdek, tugun, syujet, fabula, epilog, prolog, echim kabi badiiy komponentlarning matndagi mohiyati o'zaro vazifadoshlik nuqtai nazaridan kuzatildi. Davr ruhiyatini aks ettirgan U.Hamdami "Muvozanat" romanining tasavvur-tafsilot-tushuncha-ifoda kabi jarayonlardagi evrilishi tahlilga tortildi. Zotan, romanda adibning lirik chekinishlarga boy uslubi, falsafiy teranligi milliy-diniy yo'nalishdagi ma'no tovlanishlari bilan ajralib turadi. Adib konsepsiyasi

bilan mustahkam aloqador uslub hayotiy ziddiyatlarning ijtimoiy-ruhiy teranliklarini yoritishga intilishga moyilligidan, shu maqsadda, ruhiy tahlil vositalari ranginligini mo‘l ishga solishdan kelib chiqadi. SHu ma’noda, muallif falsafasi, asarda aksar hollarda, ijodning teng huquqli sub’ekti darajasiga ko‘tariladi.

Badiiyat muayyan davrning ijtimoiy-ruhiy mohiyati bilan mustahkam aloqada bo‘ladi. Chunki ijodiy niyatning badiiyatga aylanajak falsafiy-umumlashma qatlami yozuvchi tafakkurini zamon va muhit bilan bog‘lab turadi. Binobarin, adabiy tafakkur miqyoslaridagi muntazam o‘zgaruvchanlik g‘oya va maqsaddagi semantik vazifadoshlikni saqlab qolishning o‘ziga xos garovidir. Asardagi voqealar va qahramonlarning harakatdan holatga, holatdan harakatga muntazam o‘tib turish zarurati o‘rni bilan ruhiy-tahlil zaruratini inkor etmaydi, balki taqozo qiladi. Bu esa, o‘rni-o‘rni bilan, yozuvchi mahorati tufayli tasvir shartlilikini ham ta’min etadi. Demak, badiiy uslub ham shakliy mundarija, ham kompozitsion maydon, ham estetik-g‘oyaviy maqsadni uyg‘unlashtiradigan – umumlashtiradigan adabiy kategoriyadir.

Adabiy asarning kompozitsion yaxlitligi ifoda shaklining o‘zaro bog‘lanishli taraqqiyotida maromiga eta boradi. Asarning badiiy komponentlariaro munosabatdagi muvozanat uslubiy yaxlitlikdan tashqari, kompozitsion butunlikni ham ta’minlaydigan muhim adabiy atribut hisoblanadi. U.Hamdamning “Muvozanat” asari shu nuqtai nazardan kuzatilsa, romanning badiiy to‘qimalari falsafiy mushohadaning epik tasvir markaziga intilishidan oziqlanishi ayon bo‘ladi. Adib poetik uyg‘unlikni saqlashda oddiy nutqiy bog‘lamalar, dialogik va monologik lavhalardan tashqari, ba’zan bayon usuli o‘rnida qahramonlararo bahs-munozaradan va qahramonning o‘zini-o‘zi ruhiy tahlil etish usullaridan unumli foydalangan.

Muallif ichki nutq, xatti-harakat, turli situatsiyalar, badiiy shtrixlar, hayotiy tafsilotlarni asosiy maqsad tomon yo‘naltiradi. Ayni paytda, voqea-hodisalarga turli rakurslardan yondashadiki, bu polifonik mazmundorlikni ham ta’minlaydi.

Xarakter mantig'i va qahramon ruhiyatini yoritish orqali ijtimoiy-badiiy umumlashmalarni ifodalashda epik makon kategoriyasi talablariga tayanib ish ko'radi. Tasvir o'q ildizini ob'ektiv voqelikning sub'ektga, ya'ni zamon evrilishlarini o'zida aks ettirayotgan shaxs tafakkuri va qalbini ko'rsatishga qaratadi. Ushbu faslda romandagi qahramon tabiatini belgilab, davr ruhiyatini uyushtirib turuvchi estetik markazning kompozitsiya masalasiga kelib tutashuvchi semantik-struktural qurilishini o'rganishga alohida e'tibor berildi.

Ishda, shuningdek, Yusuf-Amir, Yusuf-Mirazim, Yusuf-Said munosabatlari va muloqotlari Yusufning ichki monologlarini tahlil etish orqali ko'rsatildi. Savol-javob, monolog, muhokama, xayoliy-illyuziv munozara, dialog ko'rinishlarining o'ziga xos vazifaviy xususiyatlari, ularning mantiqiy-mazmuniy asoslanishi, shuningdek, psixoanalitik teranligi masalalari tahlil etildi. "Muvozanat" romanida ko'p qatlamli muallif va qahramon nutqlari, dialogik tafakkur asarning kompozitsion nuqtai nazardan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ruhiy va madaniy-ma'rifiy uyg'unligini hamda badiiy butunligini maydonga keltirishda muhim rol o'ynagan.

"Muvozanat" romanida goh xarakterda qayta jonlangan voqelik, goh ruhiy kechinmaning tabiiy oqimi tasvirlari o'rin almashib turadi. Majoziy talqinga alohida e'tibor beriladi. Bu hol romanning o'ziga xos strukturaviy tizim shaklida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Muallif kompozitsiya komponentlaridagi vazifadoshlik masalasiga batafsil e'tibor berishdan ongli ravishda chekinib, rivoya chegaralarini erkin ravishda kengaytiradi. Adib goh folklor an'alariga tayansa, goh yangicha modern tajribalarga mayl bildiradi. Bu izlanishlardagi ifoda tarzi maqsad va muammolarning tarixiy qamrovni birmuncha kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

U.Hamdanning "Muvozanat" romanida ruhiy tahlilga moyillik ustuvor. Adib qahramon ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, zamonning dolzarb ijtimoiy muammolarini analitik munosabat orqali falsafiy badiiy mushohadakorlikning yangi-yangi imkoniyatlarini topishga erishgan. Badiiy asarda ba'zan, muallif ovozi

bilan ayrim qahramonlarning ichki ruhiy dunyosi va tovushi maksimal darajada bir-biriga yaqinlashgandek bo'ladi. Binobarin, U.Hamdam aksar hollarda, o'z nuqtai nazarini qahramon intellekti tabiatiga singdirib yuboradi. Ta'kidlash o'rinliki, hozirgi o'zbek nasrida tarixiylik va zamonaviylik unsurlari o'zaro faol munosabatga kirishmoqda. Shu ma'noda, yaratilayotgan romanlarimizda majoziy-ramziy tahlil, timsoliy ifoda va hayotiy aqida sintezini namoyon etishda kompozitsiyadagi yangi-yangi izlanishlar, bu masalada badiiy yaxlitlikka erishuv muhim rol o'ynamoqda. Bu hol zamonaviy o'zbek romanchiligida shakliy mundarijaviy va kompozitsion izlanish uyg'unligi, umuman, hayotni badiiy idrok etish tamoyilidagi muhim qirralardan biriga aylanayotganligini ko'rsatadi.

Insonni anglash imkoniyatlarini kengaytirish, uning ruhiyati haqidagi tasavvurlarni boyitish bilan bog'liq ushbu jarayon zamonaviy o'zbek romanchiligini ham chetlab o'tmadi. Shuningdek, yaqin o'tmish jamiyatining inqirozi sabablarini anglagan o'zbek adiblari yaratgan romanlarda jamiyat va inson munosabatlariga nisbatan norozilik ruhi yorqin namoyon bo'ldi. Bu esa ijtimoiy-tanqidiy pafosning o'tkirlashuvi: ijtimoiy adolatsizlik, shaxsning toptalishi, shovinizm, inson erkinligi bo'g'ilishi, ma'naviy inqirozning kuchayish sabablari kabi masalalarga diqqat qaratishning ortishiga olib keldi. Muhimi shundaki, ekspressionizm adabiy-madaniy an'analardan butkul uzilgan hodisa emas. Yangilangan obrazlar va ifoda tarzi inson tafakkuri va ko'nglida kechayotgan, davr ruhiga monand nidolarni aks ettirdi. Muallif qalb, uning ichki "men"i ifodasini ob'ektiv voqelikdan ustuvorroq deb bildi. Buning natijasi o'laroq, ifodalash tasvirlashdan, intuitsiya mantiqdan ustun sanala boshlandi. Abstraksiyalash, majoziy obrazlar yaratish, ramziylik, fantastika, groteskning roli ortdi. Zamonaviy romanlarda murakkab hayotiy muammolardan ko'ra u tug'dirgan taassurot, iztirob, alamlar o'z ifodasini topdi.

Darhaqiqat, romanchilik, xususan o'zbek romanchiligi ham tinimsiz yangilanib turadigan tizim. Janr tabiatida kuzatiluvchi evrilishlar, eng avvalo, mohiyatan shaklda namoyon bo'ladi va uslubda yaxlitlashadi. Mazmun, shakl va

uslub mushtarakligida namoyon boʻladigan oʻzgarish asosan, badiiy tartibot, tuzilish va qurilishda zuhur topadi. Asar strukturasi ifodasidagi hayotga yaqinlik, undagi mustaqillik bilan koʻpovozlilik garmoniyasi tasvir ruhiyatining oʻzaro qorishiq holatini talab etuvchi talqin polifoniyasini maydonga keltiradi. Bu esa, oʻz navbatida, tasavvur miqyoslari kengayishi, mushohada koʻpqirraligini shakllantiradi. Ohang hamda ong uygʻunligi nutqdan tafakkurga, undan tasavvurga koʻchadi. Koʻpovozlilik tasavvur va tasvir yaxlitligi zamirida voqe boʻladi. Ongning maʼnaviy daxlsizligi badiiy tafakkur yoʻnalishlariga yoʻl ochadi. Bu koʻp hollarda nutq darajalanishini ham keltirib chiqaradi.

Koʻrinadiki, polifonik kompozitsion tizim badiiy yaxlitlikni taʼminlaydigan shartlardan biri boʻlib, unda ham ong, ham nutqning koʻpovozli jarayonlari oʻzaro uygʻunlashadi. Polifoniya tushuncha, tafsilot, harakat hamda kechinma jipsligini tavsiflaydigan atama boʻlib, unda nutqiy chegaralanish (muallif munosabati, qahramon nutqi va ijtimoiy asos) muayyan darajada bartaraf etilib, kitobxon yoxud idrok etuvchining taxayyul huquqlariga erk beriladi. Kompozitsion aloqadorlikka ham daxldor bu erk badiiy asar imkoniyatlari va mohiyatini matn sathining oʻzidan koʻra jiddiy ravishda kengaytiradi.

Kuzatishlardan ayon boʻladiki, polifoniya hodisasi hatto jahon va rus adabiyotshunosligida ham nazariy aspektda izchil oʻrganilgan emas. Ayrim romanlarda namoyon boʻluvchi bu hodisa tadqiqiga qator izlanish, maqolalar bagʻishlangan boʻlsa-da, aksar tadqiqotlarda uning koʻpovozlilik fazilatigagina eʼtibor beriladi. Aslida polifoniya adabiy tizimga daxldor tushuncha boʻlib, u polifonik nutq, qahramon harakati va tabiatidagi koʻpqirralilik hamda ularning kompozitsiya shakllanuvdagi kelib chiquvchi joylanishini ham qamrab oladi. Ishda oʻzbek olimlarining bu masala yuzasidan ilgari surgan dastlabki fikrlari tahlilga tortildi.

Muayyan romanning konseptual mohiyati, eng avvalo, bosh va etakchi qahramonlar xarakteri orqali namoyon boʻladi. Badiiy xarakterda ijodkor tomonidan yaratilgan yangi mavjudlik yotadi. SHuning uchun ham u, bir

tomondan, badiiyat hodisasiga, ikkinchi jihatdan, konseptual funksiyaga daxldordir. Demak, kompozitsion yaxlitlikka erishish xususida gap ketar ekan, badiiy konsepsiya shakllanishi va ifodalanishi, voqelikni teran badiiy idrok etish, g'oyaviy-hissiy qadriyatlar kompleksidan iborat jarayonlarni chetlab o'tish mumkin emas.

Zamonaviy romanchilikda, xususan, "Muvozanat"da yaratilayotgan xarakterlar turg'un tip emas. Binobarin, endi asar syujeti qahramonlari tipik belgilarga moslashtirilmayapti. Xarakter davr va muhitning mahsuli bo'lish barobarida, individuallik salmog'i alohida o'rin tutuvchi, shaxslik maqomini anglash markazga qo'yilgan, tiynatiga ko'ra harakatlanuvchi inson sifatida zuhur topmoqda. Bu hol hayotni yanada teranroq va ko'lamliroq idrok etishga intilishdan kelib chiqmoqda. Romannavislarimiz badiiy xarakterlarni shakllantirish, rivojlantirishda ularning ko'ngil iqlimi, hayotiy amallari, kurashlari, ruhiy ehtiyojlarini tasvirlashga ko'proq ahamiyat bermoqdalar.

Borliqni idrok qilish, qahramon obrazini yaratishda sintaktik qatorning kompozitsion yaxlitlikdagi o'rniga e'tibor kuchaymoqda. Jumladan, U.Hamdanning "Muvozanat" romanida shaxs va jamiyat muammolari falsafiy muhokamaga tortilar ekan, muhit suvratidan sizib chiqadigan ijtimoiy mohiyat estetik ideal bilan chambarchas aloqadorlikda badiiy tahlilga tortiladi. O'tmish, bugun, kelajak; jamiyat va shaxs; iymon va nafs; ruhiyat va reallik aro muvozanat muammolari asarning g'oyaviy va konseptual asosini tashkil etadi. Muallif insonning ma'naviy-moddiy mutanosibligi mezonlariga urg'u berarkan, ruhiy yaxlitlik odamzod a'molini belgilashini ta'kidlaydi:

“– Mana, haromi o'g'rini tutdik! –dedi uchovlondan biri.

– Qanaqasiga men o'g'ri bo'lay, oddiy yo'lovchiman. Kim bilandir adashtirayapsizlar! – Amir ahvolni oz-moz tushuntirgandek bo'ldi.

– Hoy, it emgan ablah, qilg'ilikni qip qo'yib, yana yolg'on gapirasanmi? – boshqa biri tortib olingan tayoq bilan Amir qanshariga tushirib qoldi.

Amir og‘riqdan ihrab yubordi.

– O‘g‘irlangan qo‘ylarni nima qilding, pastkash? – urgan kishi Amirning yuziga yaqin kelib, tupugini sachratib baqirardi”¹.

Ko‘rinadiki, ruhiy muvozanat muammosi va ehtiyoji butun asar hujayralariga singib ketgan. Aslida mazkur ehtiyoj hamisha bashariyat o‘y-xayollarini band etgan masalalardan biridir. Lekin bu, romanda ko‘ngildan jamiyat tomon, jamiyatdan ko‘ngil sari evriladigan iztiroblar zalvori real hamda ong oqimi tutashuvida tuyg‘u ziddiyatlarining badiiy talqini tarzida ifodalanadi. E‘tiborli jihati shundaki, adib islomiy ma‘naviyat bulog‘idan suv ichuvchi falsafiy teranlikni tasvir ruhiyatiga jonli ravishda ulay biladi. Natijada, asarda muhokama va munosabat o‘zaro jipslashadi.

“Muvozanat”ning kompozitsion tuzilishi to‘rt inson qismati (Yusuf, Amir, Mirazim, Cho‘pon) tasviridagi qurilishni o‘ziga jo etadi. Bir qarashda, bu qahramonlarning har biri o‘ziga xos bir olam va o‘zaro daxlsizdek taassurot uyg‘otadi. Aslida esa, ularning har birida bir davrning turli qirralari aks etadi va shu muammoda ularning mohiyati uyushadi. Davr manzaralari va odamzod ruhiyati yaxlitligini falsafiy tahlil sahnida uyushtirgan adib kompozitsion qurilishdagi evrilishlar orqali qahramon shaxsida ulkan ijtimoiy ma‘nolar zalvorini tajassum etishga muvaffaq bo‘ladi¹.

Asarning universal qahramoni Yusuf o‘zida joriy kun ruhiyatini ifodalaydi. Izlanuvchan ziyoli sifatida bu obraz ijtimoiy-siyosiy tamoyillarni mustaqil baholashga intiladi. O‘rni kelganda to‘g‘ri xulosa chiqaradi, ba‘zan qattiq pand eydi. Tenglik muammosi uning xayolini band etgan asosiy savdo. U buyuk tenglik insonni kamolotga etaklashini yaxshi biladi. Ichki tuyg‘u vositasida mantiqiy tafakkur yuritishga odatlangan yigit o‘z mohiyatida muvozanatni tutib turishga

¹ Хамдам У. Мувозанат. – Тошкент: Ишарк, 2007. – Б. 124.

2 Pirnazarova M. Hozirgi o‘zbek romanlarida uslubiy izlanishlar. (O.Muxtor, X.Do‘stmuhammad, U.Hamdam, T.Rustam) romanlari asosida) f.f.n.diss. Toshkent.: 2006. -B. 147.

intiladi. Unda insoniylik belgilari – halollik, e’tiqod, diyonat va axloq mujassam. Biroq ijtimoiy hayotdagi o’zgarishlar odamzod ma’naviy-moddiy ruhiyatiga daxl qiladi. Chunki aslida shaxs a’molini belgilaydigan ustuvor jihat ko’ngil mayli va taqdir chizig’i to’qnashuvi sanaladi. Yozuvchi shu muammolar tasvirida jiddiy yutuqlarga erishadi.

Professor D.Quronov: “Muvozanat”da ijtimoiy dardning tom ma’noda shaxsiylashishi yoki shaxsiy dardning ijtimoiy jarang topishiga olib keldiki, romanning o’quvchi ommada katta rezonans bergani ham shu bilan izohlanadi”¹, – deb yozadi. Ko’rinadiki, munaqqid asardagi shaxsiyat va ijtimoiy mohiyat orasidagi mustahkam aloqani aniq va to’g’ri ilg’aydi. Shu nuqtai nazardan, Yusuf obrazida ijtimoiylik va shaxsiyat uyg’unlashuvi, Ergashda esa ikki qutb bir-birini inkor etishini kuzatish mumkin. Chunki dastlabki qahramon “faqat kitob titishu, ilm egallash uni har doim ham baxtli qilolmasligini sezadi. U o’z idealini, hayotga munosabatini o’zgartirishi ustida bosh qotirsa”², keyingi obraz tiynatida ojizlik sari yuz burish kuzatiladi. Ergashning tutumiga e’tibor beraylik:

“Mening qo’limdan nima keladi? Sabr qil, hammasi tag’in izga tushib ketar. Esimni tanibmanki, fizika-matematika bilan shug’ullangan odamman. Kecha menga shu mehnatim evaziga etarli pul to’layotgandi, bugun to’lamayotgan ekan, ayb mendami? Men kecha nima ish qilgan bo’lsam, bugun ham o’shani bajarayapman. Na sen, na senga o’xshagan tovuq miyalar tushunmayaptiki, men boshqa sohada endi ishlay olmayman. Buni necha marta aytishim kerak. Baliq suvdan o’zga joyda yasholmaganidek, men ham boshqa joyda qo’lsiz-oyoqsizman, tushunsang-chi!”³

Romanda bu ikki obrazning ikki qutbda tasvirlanishi mantiqiy asosga ega. Ular, aslida, hayotiy pozitsiyaning qarama-qarshi tarafida shakllangan. Tasvir zahirida muallif bozor iqtisodiga o’tish davrida yuzaga kelgan ichki ziddiyatlarga

¹ Куронов Д. Адабий жараёнда “Мом синдроми” – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 10.

² Қўшжонов М. Шиддат билан ёзилган роман / У.Ҳамдам. Мувозанат. – Тошкент: 2004. – Б. 4.

³ Ҳамдам У. Мувозанат. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 106-107.

urg‘u beradi. Yusufda zamon evrilishlarini anglashga moyillik kuchli. Ergash esa qiyinchiliklar oldida taslim bo‘ladi.

Asarda Amir-Yusuf muloqotlariga yuklangan maqsad, shuningdek, Amir, Cho‘pon hamda uning o‘g‘illari obrazlari tiynati va iroda yo‘nalishi tadqiqi orqali asarda ifoda serqatlamliligi, badiiy-mantiqiy dalillash uzviyligining ta‘minlangan. Badiiy asar, shuningdek, roman mag‘zini inson ibtidosi va intihosining ruhiy tahlili – ijtimoiy falsafaning estetik talqini belgilashi asoslangan. Bularning barchasiga erishishda badiiy komponentlarning uzviy birligi va o‘ziga xos joylashuvidan tashkil topuvchi kompozitsiya roman badiiy yaxlitligini ta‘minlashda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Romanda 90-yillardan keyingi o‘zbek xalqining evrilishlar davridagi tushkun kayfiyati juda yorqin detallarda ochilgan. Chunonchi, choyxona tasviri yoki bilyard o‘yini muvaffaqiyatli chiqqan o‘rinlardan. Umumiy bir xulosaga keladigan bo‘lsak, "Muvozanat" romani ayrim juz‘iy kamchiliklarga qaramasdan, mustaqillik davri o‘zbek romanchiligining etuk asari bo‘lib kolishiga ishonamiz.

Asar "Turishi kerak... Turishi kerak..." degan mantiqiy davomiylikka ega jumla bilan yakunlanadi. Bu esa Yusufning yangi kurashlarga chog‘lanayotganidan darak berib turibdi. Asarning bu tarzda optimistik ruh bilan tugallanishi esa kitobxon ko‘ngliga taskin beradi.

Xulosa shuki, Ulug‘bek Hamdam nasriy asarlarida yozuvchining ilk asari "Yolg‘izlik"da boshlangan yigit ruhiyatini chukur talqin etish tizimi uning roman va hikoyalarida ham izchillikda davom etdi. Zero, "ruhiy taxlil qonuniy badiiy hodisa bo‘lib (Chernishevskiy) ijodiy mahoratning kamolati darajasini, uning ta‘sir doirasini belgilovchi sifat belgisidir"¹.

Yaqinda oynayi jahonda dengiz tubidagi hayot to‘g‘risida ilmiy-ma‘rifiy ko‘rsatuv berildi. Okeanshunos tadqiqotchilarning aniqlashicha, ummon va dengiz tubida marjonlar yig‘ilib-yig‘ilib suv ostida ulkan marjon koyalarini

¹ Умуров Х. Қаҳрамон маънавий олами ва эпиклик. Тошкент: Фан, 1995.-Б. 3.

paydo qilarkan. Kuchli to'fonlar chog'ida marjon qoyalar har tomonga sochilib ketar ekan. Ammo to'fon tingach, marjonlar yana qaytadan yig'ilib-yig'ilib yana oldingidek haybatli marjon qoyalarni paydo etarkan. Iste'dodli shaxslarni ham o'sha okean tubidagi marjon qoyalarga o'xshatish mumkin. Lekin har qanday davr to'fonlari haqiqiy iste'dodga yo'g'rilgan bu "marjon qoyalar"ni qulata olmaydi. Ma'lum bir muddat to'zg'itib yuborilishi mumkin, ammo ular marjon qoyalar singari, albatta, to'fon tingach, yana ulkan va buyuk iste'dodlarini ko'z-ko'z etib namoyon bo'lishaveradi!

Xulosa

Istiqlol davri o'zbek nasri bugungi kunda yozuvchilarimizning ijodiy izlanishlari natijasida yangi pog'onaga ko'tarilmoqda. Ulug'bek Hamdam kabi bugungi o'zbek nasrining iste'dodli namoyandalari asarlarini tahlil qilish orqali o'zbek romanlarini o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak yozuvchi Ulug'bek Hamdam hozirgi o'zbek nasrida samarali izlanishlar olib borayotgan ijodkorlardan biridir. Ulug'bek Hamdam asarlari qahramonlarining o'ziga xos ma'naviy olami qanday talqin etilganligi, yozuvchi asarlarida hayotning qaysi jihatlarini tasvirlashga moyillik mavjudligi hamda qahramonlarining umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'quvchi shuuriga ko'chirishning badiiy mezonlarini oydinlashtirganligini aniqlash masalasi muhim o'rin tutadi.

Ulug'bek Hamdamovning shu kungacha ancha badiiy asarlari nashr etilgan. Shulardan «Yolg'izlik». Qissa va hikoyalar (1998), «Tangriga eltuvchi isyon». She'rlar. (2001), «Isyon va itoat». Roman. (2003), «Muvozanat». Roman. (2004), «Atirgul». She'rlar. (2005), «Seni kutdim». (2007), «Sabo va Samandar». Roman. (2009), «Uzoqdagi Dilnura». Qissa, hikoya va she'rlar. (2010). "Vatan haqida qo'shiq" Roman va hikoyalar.(2014) kabilarni sanab o'tishimiz mumkin.

Ulug'bek Hamdam romanlari bugungi milliy adabiyotimiz maydonida turli bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan ruhiyat masalasini tahlil etish va hozirgi adabiy jarayonda yuz berayotgan o'zgarishlarni izchil talqin qilishga xizmat qilmoqda.

Adib asarlarida qahramon ruhiyatini ochishda, asosan, karama-qarshi tuyg'ular kolliziyasi etakchilik kiladi. Natijada ruhiy tasvirda har tomonlama ishonarli, yorqin obrazlar va xarakterlar yaratilgan.

"Sabo va Samandar" romanining bosh qahramoni Samandar hayot, jamiyat, o'zlik haqidagi fikr-mulohazalar yuritadi va ishq uning qalbida etakchilik qiladi. SHu sababli ham Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" asariga qayta-qayta murojaat

etadi. Adib Samandar obrazi orqali haqqa, haqiqatga, o'zlikka bo'lgan intilishni ishq-muhabbat orqali ko'rsatib bergan.

Ulug'bek Hamdamning "Na'matak" mini romani o'ziga xos majoziy talqindagi roman hisoblanadi. Bu romanda ham eng oliy tuyg'u muhabbat umr mazmunining asosi ekanligi haqida ramziy ma'noda aks ettiriladi. Ijodkor tilsim kalitini izlovchidir. Tilsimlarni ochuvchi "sim-sim" degan so'zni topish ahli ijod orasida kamdan-kamiga nasib etadi. "Na'matak" biz bilgan butaning nomi. Yozuvchi uni asariga ism qilib berkitdi. Asar voqealari sodda ifodasi ham oddiy, lekin bu voqelik zamirida ramziy ma'no yotibdi.

Ulug'bek Hamdamning «Muvozanat» romani juda katta shov-shuvli bahslarga sababchi bo'ldi. Katta adabiyotshunoslarimizdan M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, S.Sodiq, D.Quronov va yozuvchi P.Qodirov, J.Abdullaxonovlar romanga ijobiy baho berishdi. SHuningdek roman I.Yoqubov, Z.Pardaeva, Sh.Doniyorova, M.Pirnazarova kabi olim va tadqiqotchilarimizning ilmiy monografiya, dissertatsiya ishlari va kichik maqolalari doirasida tadqiq etildi. Shu bilan birga asar badiiy saviyasining kemptikligi, xususan, asar tilining nochorligi haqida M.Chorieva, H.Karvonli kabi yosh yozuvchi ijodkorlar tomonidan tanqid etildi.

"Muvozanat" jami bir yuz o'n qismdan iborat bo'lib, unda oltmishga yaqin faol va nafaol bo'lgan qahramonlar ishtirok etadi. Roman uslubida ko'proq ijtimoiy-falsafiy mazmun etakchilik qilsa-da, voqealar maishiy fonda olib boriladi.

U.Hamdamning "Muvozanat" romanida shaxs va jamiyat muammolari falsafiy muhokamaga tortilar ekan, muhit suvratidan sizib chiqadigan ijtimoiy mohiyat estetik ideal bilan chambarchas aloqadorlikda badiiy tahlilga tortiladi. O'tmish, bugun, kelajak; jamiyat va shaxs; iymon va nafs; ruhiyat va reallik aro muvozanat muammolari asarning g'oyaviy va konseptual asosini tashkil etadi. Muallif insonning ma'naviy-moddiy mutanosibligi mezonlariga urg'u berarkan, ruhiy yaxlitlik odamzod a'molini belgilashini ta'kidlaydi.

U.Hamdamning "Muvozanat" romanida jamiyat ruhi va asar yaratilgan davr muammolari kompozitsion jihatdan Yusuf shaxsiyatida markazlashtiriladi.

yozuvchi davr o'zgarishlarini dunyoqarashdan hayotiy ziddiyatlarga, ijtimoiy muammolardan ruhiy evrilishlarga qarata siljitar ekan, ularni asosan yagona nuqta – inson qalbida fokuslashtiradi. Yusuf bamisoli personajlararo badiiy katalizator. U muallifning g'oyaviy-estetik niyatini yaxlitlashtirib, kompozitsiya komponentlarini bir-biriga ulovchi universal obrazdir. Ushbu romandagi Mirazim Said, Amir kabi obrazlar mohiyati, ularning roman kompozitsion yaxlitligini ta'minlashdagi roli tahlil etildi. O'rni bilan Amir obraziga munosabat bildirgan U.Normatov, D.Quronov, S.Sodiq, J.Eshonqul, I.Yoqubov kabi olimlar bilan bahs-munozaraga kirishildi.

U.Hamdamning romani uchun tanlangan mavzu, uslub va mazmun munosabatlari "tahlil" zalvorini oshirish, talqin ta'sirini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Roman qahramoni Yusuf shaxsiyatidagi falsafiy-ijtimoiy mohiyatni namoyon etishda asardagi badiiy komponentlar munosabati muhim o'rin tutadi. Adib uning ruhiy-ijtimoiy maqsadlarini ochishda drammatizmni keskinlashtirish yo'lidan boradi. Epik maydon kengayishi asar strukturasini murakkablashtiradi. Epik qatlam syujet qismlaridagi shartlilikni teranlashtirib, tasvirdagi yaxlitlashuvni yuzaga keltiradi. Tasvir o'zida talqinni ham jo etgan holda ijtimoiy-psixologik manzaralar ichiga olib kiradi.

Xullas U.Hamdam romanlarida mavzu va g'oya o'zaro mutanosiblikda ifodalanadi. Mavzu tanlanishi va uni shu mavzuga muvofiq g'oyaviy akslantirish adib mahorati orqali romanlar kompozitsiyasini yo'naltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.Toshkent.: O'zbekiston,1997.-B. 142.
- 2.Adabiyot nazariyasi. 1-tom. Toshkent.: Fan. 1978. - B. 85.
- 3.Adabiyot nazariyasi. 2-tom. Toshkent.: Fan. 1979. - B. 155.
4. Adabiy turlar va janrlar. 3-jildlik. 1-jild. Epos. Toshkent.: Fan. 1991. - B. 264.
- 5.Boboev T. Hayot materialidan badiiy obrazga. Toshkent.: Fan. 1976. - B. 144.
- 6.Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent.: O'zbekiston, 2002.
- 7.Boltaboev X- Nasr va uslub. Toshkent.: Fan, 1992. - B. 105.
8. Doniyorova Sh. Tarixiy mavzu va adib mas'uliyati. //O'zbek tili va adabiyoti. 2002. №5. -B. 46-47.
- 10.Doniyorova Sh. Davr va qahramon muammosiga doyr // O'zbek tili va adabiyoti. 1999.№3. - B. 46-47.
- 12.Doniyorova Sh. Shukur Holmirzaev hikoyalarining uslubiy o'ziga xosligi. F.f.n. diss. Avt. Toshkent.: 2000. -B.
- 13.Davronova Sh. Adabiy jarayon va yozuvchining ijodiy individualligi. F.f.n.dis.avt. Toshkent.: 2004. - B.24.
- 14.Yokubov X- O'zbek prozasida uslub rang-barangligi // O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. Toshkent.: 1983. - B.208.
- 15.Karimov X- Hozirgi o'zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi. (70-80-yillar). F.f.dokt.dis.avt. Toshkent.: 1994. -B.52.
- 16.Kattabekov A. Adabiyotning bosh mavzusi. // Sharq yulduzi. 1987. -B. 179.
- 17.Karimov X- Janrmi yoki uslub. -Toshkent.: Fan. 1991. -B. 156.
- 18.Карим Б. Улуғбекнинг дил изҳори. // Узоқдаги Дилнура. Т.: Академнашр, 2010.-Б. 3.
- 19.Mamajonov S. Uslub jilolari. -Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992. - B. 219.
- 20.Mirvaliyev S. Nasr, davr va qahramon. Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983.

21. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. Tarix va adabiy jarayon. Toshkent.: 2006.
22. Mirzayev I. Tafakkur va nasr. Samarqand. Zarafshon. 1993. -B. 192.
23. Mo'minov F. Izlanishlarimdan qatralar. Gafur Gulom nomidagi nashriyot. Matbaa ijodiy uyi. Toshkent.: 2006. -B. 230.
24. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -Toshkent.: Ma'naviyat. 2000. -B. 109.
25. Normatov U. Bugungi nasrimizning yetakchi tamoyillari. // O'zbek tili va adabiyoti. 2001. 3-son, -B. 3-9.
26. Normatov U. Adabiy jarayondagi g'aroyib robitalar. // O'zbek adabiyoti va san'ati. 1995. 3-noyabr.
27. Normatov U. Bugungi nasrimiz tamoyillari // Jahon adabiyoti. 1997. 3-son. -B. 152-167.
28. Normatov U. Yetuklik. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1982.
29. Pirmazarova M. Hozirgi o'zbek romanlarida uslubiy izlanishlar. (O.Muxtor, X.Do'stmuhammad, U.Hamdam, T.Rustam) romanlari asosida) f.f.n.diss. Toshkent.: 2006. -B. 147.
30. Раҳмат Р. «Бир ёруғлик излайман ҳамон...» // Ёлғизлик. Тошкент: Қатортол-Қамолот, 1998. - Б. 92.
31. Rasulov A. Hozirgi o'zbek tanqidchiligida tahlil va talqin muammosi. F.f.d.diss.avto. Toshkent.: 2002. -B. 44.
32. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doyr (Oybek, A.Qodiriy, A.Qahhor, S.Ahmad prozasi asosida). -Toshkent.: Fan, 1973. -B.116.
33. Shukurov N. Individual uslub va adabiy til // O'zbek tili va adab. 1972. 304-sonlar. -B. 3-9.
34. Shukurov N. Uslublar va janrlar. -Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1973. -B. 170.
35. O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang- barangligi. Toshkent.: Fan. 1983. -B. 204.
36. Куронов Д. Адабий жараёнда “Мом синдроми” – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 10.
37. Қўшжонов М. Шиддат билан ёзилган роман / У.Ҳамдам. Мувозанат. – Тошкент: 2004. – Б. 4.

38. Qo'shjonov M. Qalb va qiyofa. Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978. -B. 142-155.
39. Hamdamov U. «Yolg'izlik». Qissa va hikoyalar. Toshkent: Qatortol-Kamolot, 1998. 112 bet;
40. Hamdamov U. «Tangriga eltuvchi isyon». She'rlar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001, 100 bet;
41. Hamdamov U. «Isyon va itoat». Roman. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003, 140 bet;
42. Hamdamov U. «Muvozanat». Roman. Toshkent: Minhoj, 2004, 200 bet;
43. Hamdamov U. «Atirgul». She'rlar. Toshkent: Said-standart, 2005, 224 bet;
44. Hamdamov U. «Seni kutdim». She'rlar. Toshkent: Fan, 2007, 232 bet;
45. Hamdamov U. «Sabo va Samandar». Roman. Toshkent: Muharrir, 2009, 310 bet;
46. Hamdamov U. «Uzoqdagi Dilmura». Qissa, hikoya va she'rlar. Toshkent: Akademnashr, 2010, 232 bet.